

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

«TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT» FAKUL'TETI

**«YENGIL SANOAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI VA
JIHOZLARI» KAFEDRASI**

«KOSTYUM VA MODA TARIXI» FANIDAN

MA`RUZA MATNI

Buxoro – 2008 yil

UDK (675)

Taqrizchi:

**BUX.DU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
fakulteti dekani prof. Abdullayev S.F.**

Mazkur ma'ruzalar mat bakalavr yo'nalishining 5540600 "Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi" va 5590400 Kasb ta'limi (Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi) "YECMT" kunduzgi va maxsus sirtqi bo'lim talabalari uchun mo'ljallangan.

Kostyumning eski Misrdan to bugungi kunga qadar rivojlanishi kiyimning kelib chiqishi, unga stil' va modaning tahsili ko'rib chiqilgan. Ko'hna dunyo mamlakatlariga umumiy xarakteristikasi, go'zallikning estetik ideali berilgan. Har bir tarixiy bosqichning o'ziga xos matolari, ornamentlari, rangi, kostyumning shakllari, bezaklari, bosh kiyimlari va poyafzallari berilgan. O'rta Osiyo aholisining milliy kiyimlari, ularning turlari chuqur ko'rib chiqilgan. Kiyimni poyafzal va aksessuarlarni tayyorlash uchun muhim bo'lgan kostyum kompozitsiyasi asoslari ko'rsatilgan.

MUNDARIJA

bet

1. TAYANCH IBORALAR	4
2. KIRISH	5
3. Ma`ruza 1.QADIMIY MISR KOSTYUMI	6
4. Ma`ruza 2. QADIMIY RIM KOSTYUMI	11
5. Ma`ruza 3.QADIMIY YUNON KOSTYUMI.....	16
6. Ma`ruza 4.G`ARBIY EVROPA KOSTYUMI	21
7. Ma`ruza 5.RUS XALQINING KOSTYUMI	22
8. Ma`ruza 6. O`RTA OSIYO XALQLARINING MILLIY KIYIMI	24
9. Ma`ruza 7.O`ZBEK XALQINING MILLIY KIYIMI	26
10. Ma`ruza 8.XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDAGI O`ZBEK KOSTYUMI	32
11. ADABIYOTLAR.....	42

TAYANCH IBORALAR

Moda, stil', kostyum, kiyim, elkali va belbog'li kiyim, o'tkazma va qoplama kiyim, aksessuar, ich kiyim, bosh va oyoq kiyim, ko'ylak, paypoq, naqsh, gazlama, rang, ramziy ma'no, ideal go'zallik, yuz qiyofasi, zig'ir poya, to'qima, ip-gazlama, soch turmagi, estetik did, ziynatbop buyum, san'at, arxitektura, drapirovka, sxenti, plissirovka, taqinchoq, urey, sandal, poyafzal borti va tagligi, neandr, xiton, gimatiya, qirqim, syurko, eng o'mizi, kott, siluet, kurtka, kotarid, kalta jaket, plash, kiyim etagi, kapyushon, shaperon, tunika, jilet, plash-mantiya, bosh yopinchig'i, tunika, ampir, barokko, rokoko, proporsiya, mo'yna, jun gazlama, marvarid, kashta, bezak, atlas, svita, shapka gardishi va kulokchini, rubaxa, etik, lapti, belbog', yoqa o'mizi, nagrudnik-ko'krak yopqich, yon chok, an'anaviy kiyim, assortiment, tikuv mashinasi, evropacha kiyim, konstruktsiya, yo'l-yo'l mato, iqlim, etnografiya, maishiy kiyim, kiyimning old va orka qismi, salla, ro'mol, do'ppi, araqchin, to'n, joma, xalat, kamzol, chakmon, milliy kiyim, uyg'unlik, dalmatik, penula, stolu, palla, antimoda, galife, budyonovka, jinsi gazlama, diplodiy, jabo, kalaziris, kaftan, kolet, mantiya, modern, oborka, pidjak, reglan, retro, romantizm, sarafan, sxenti, fibula, xlamida, shleyf, hajm, originallik, figura, shakl, fason, model', bichim, dekor, kontrast, karkas, ansambl', garderob, komplekt, individualizm.

KIRISH

Kiyim jamiyatning moddiy va ma'naviy tarkibiy qismidir.

"Kiyim" va "kostyum" tushunchalari o'xshash bo'lsada, o'ziga yarasha farqqa ega. Kiyim inson ustidagi turli qoplamalarni o'z ichiga oladi: ich, bot, ustki va oyoq kiyimi, ko'ylak, paypoq va hokazo. Maqsadi va mo'ljallanganligi bo'yicha bog'liq, aksessuar, bezak, soch turmagi, grim bilan to'ldirilgan kiyimlarga kostyum deb aytiladi. Aynan kostyum insonning ijtimoiy va individual tasnifini, yoshini, jinsini, estetik didini aniqlovchi hisoblanadi.

Kostyum — bu insonning individualligini yoki ijtimoiy guruhini ifodalovchi muayyan obrazli badiiy sistema.

Elka va bel kiyim, bosh kiyim, poyabzal, qo'shimchalar (aksessuarlar), bezaklar, grim, soch turmagi, tanani bo'yash, uning shaklini o'zgartirish — bularning barchasi birgalikda kostyumni tashkil etadi.

Libos esa kiyim, ustbosh, odam egniga kiyadigan buyumlardir.

Kiyim — bu matodan qilingan, odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, eng avvalo, tanani tashqi muhit sharoitidan saqlaydi va insonning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qilib, estetik funktsiyani bajaradi.

Qadimdan hozirgacha insoniyat o'tmishi kostyum tarixida o'z aksini topgan.

Har bir mamlakat, har bir xalqning rivojlanish bosqichlari odamlarning kiyimida o'ziga xos xususiyatlarda ifodalangan.

Kostyum shakli paydo bo'lishiga, uning o'zgarishiga, mukammallashib borishiga quyidagilar sabab bo'lgan: tabiiy omil — Koinot, Er, tashqi muhit, iqlim, fasl va b.; ijtimoiy-iqtisodiy omil — jamoaning tuzumi, xalqning tarixiy taqdiri, etnik guruhi va millati, din, turmush tarzi, fan va texnika rivojlanishi va b; insoniy omil — jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, psixologik turi.

Kostyum ushbu sabablarga ko'ra o'z tomonidan bir necha vazifani bajaradi: ximoya, biostimulyatsiya, erotik, ijtimoiy, belgi, estetik va b.

Har qanday davr kostyumi san'at asari bo'lgan, chunki inson o'zining estetik didiga va tasavvuriga binoan badiiy obraz yaratgan. Kostyum davr va uslubga binoan o'zgarib turuvchi murakkab san'at asaridir va o'ziga xos kompozitsiyaga ega.

Kostyum barcha san'at turlari bilan uyg'unlashadi, ayniqsa, me'morchilik bilan birgalikda. Chunki me'morchilikda va kostyumda o'ziga xos tektonik tuzilishlar va konstruktiv aniqlik bor.

Kostyum tarixini tadqiqot qilish uchun turli manbalardan foydalanish mumkin: davr va xalq, tarixi, tasviriy san'at asarlari, amaliy san'at asarlari, xalq ma'lumotlari va saqlanib qolgan libos namunalari hamda moda jurnallaridan va b.

Ma`ruza 1

Mavzu : QADIMIY MISR KOSTYUMI

Reja :

1. Misr zig'irning vatani hisoblanadi
2. Matolarning ranglari rang-barang bo'lgan
3. Qadimiy Podshoxlik kostyumi
4. O'rta Podshoxlik kostyumi
5. Yangi Podshoxlik kostyumi
6. Misr erkaklar kostyumi
7. Misr ayollari kostyumi

Adabiyotlar :

1. Н.М. Каминская История костюма М., 1986.
2. Л. Орлов Азбука моды. М. 1989.
3. G.K. Xasanboeva, V.A. CHursina. «Kostyum tarixi»T., 2004.

Miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxirlarida qadimiy Misr yirik markazlashgan quldorlik mamlakati bo'lib, davlatni fir'avn boshqargan. Uning hukmronligi cheksiz edi. Misrliklarning tasavvurida fir'avn Xudoning erdagi soyasi hisoblangan. Kohinlar (din ruhoniylari) fir'avnning cheksiz huquqini himoya qilib, ijtimoiy tengsizlik va zulmga imkon yaratishgan.

Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoiti qadimiy Misr xo'jaligining rivojiga sabab bo'lgan. Misrliklar, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va har xil hunarmandchilik (tukuvchilik, zargarlik, kulollik) bilan shug'ullanganlar. Mamlakat aholiy har xil tabaqalardan, ya'ni quldorlar, aslzodalar, shaharliklar, erkin dehqonlar va qullardan iborat edi.

Tabiat kuchlariga sig'inish va afsonalar Misr madaniyatining manbai bo'lgan. Odamlar quyoshga, oyga, erga, suvga, hayvonlarga (timsoxga, chiyabo'riga, sigirga, kalxatga, ilonga, ko'ng'izga va boshqalarga), o'simliklarga sig'inishgan. Din mamlakat hayotining barcha tomonlariga ta'sir etgan. Jumladan, san'atda, odamlarning estetik tasavvurida katta rol' uynagan. Iloxiylashtirilgan narsalar doimo ma'no timsoli bo'lgan. Misol uchun, moviy nilufar — serhosillikni va abadiylikni bildirgan, ilon — saltanat belgisi bo'lgan.

Tasviriy san'at (devoriy tasvirlar) ramziy va chizmalı bo'lgan. Xususan, odamlar tasviri ham chizma shakl shartli ifodalangan. Devoriy tasvirlar va haykallarda ularning qomati, turishi, ishoralari qonunlashtirilgan edi. qadimiy misrliklar baland bo'yli, keng elkali, beli va bo'ksasi tor, ozg'in bo'lishgan. Ayollari esa xushruiy, nafosatli, kelishgan, yuzlari va bodomsimon ko'zlari chiroyli bo'lgan. Taniqli sharqshunos olim G. erbesning yozishicha, — "ularning tomiriga bir tomchi


ham chet elliklar koni qo'shilmagan, odamlarining tana terisi qorachadan kelgan, sog'lom yuzlari qizil, qirra burun, keng peshonali, qaldirg'och qoshli, tim qora sochli bo'lgan. Bilaguzuklar bilan bezatilgan qo'l va oyoqlari go'zallik timsollari bo'lgan"

Me'morchilik misli ko'rilmagan yuksak darajaga erishgan edi. Misr exromlari, ibodatxonalari, shaharlari hozirgi zamongacha odamzodni hayajonga soladi, ularning ko'p sirlari xaligacha echilmagan.

Xalq, musiqa, rake, tasviriy san'at ham yuksak darajaga erishgan edi.

Exromlardan topilgan namunalar yordamida dekorativ - amaliy san'at buyumlari bilan tanishishimiz mumkin. Ularning barchasi yuksak did bilan yaratilgan va hozirgacha insonni hayratda qoldiradi.

Misr — zig'irning vatani hisoblanadi. Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoitlari ushbu o'simlikni o'stirishga qulay bo'lgan. Misr tikuvchilarining mahorati misli ko'rilmagan darajaga erishgan edi. O'sha zamon zig'ir tola matosining tashqi ko'rinishi va xususiyatlari to'g'risida hozirgacha saqlanib qolgan mato namunalari yordamida tanishish mumkin. 1sm² shunday gazmolda 84 tanda va 60 arqoq iplari o'tkazilgan; 240 m juda ingichka va hattoki ko'zga ko'rinmaydigan hom ipning vazni 1 g edi. To'quvchi bunday ipni faqat barmoqlari bilan sezardi. Misrning zig'ir tola matosining yupqaligi tabiiy ipak matolardan qolishmasdi. 5 kavat zig'ir tola gazlamadan tayyorlangan kiyim ostidagi tana aniq ko'rinardi.



1-rasm. Misr naqshi.

Matoning fakturasi ham har xil bo'lgan. YAngi Podshohlik davrdagi to'rsimon, yaltiroq munchoqlar va tilla kashtalar bilan bezatilgan gazmollar odamda unutilmas taassurot qoldiradi.

Matolarning ranglari rangbarang bo'lgan. Rang tanlash tasodifiy bo'lmagan Zangori rang — Nil daryosi (suv) va osmonning; sariq rang — qum va erning; yashil rang — o'simlikning; qizil — quyoshning timsoli hisoblanardi; qora rang bilan esa tasvirning chegarasi chizilardi.

Naqshda, asosan, kuyosh nurlari, geometrik shakllar (yo'l-yo'l, ilon izi) va stilizatsiyalangan o'simliklar va hayvonlar tasvirlanar edi (1-rasm).

Misir naqshining tekisligi, osoyishtaligi, vazminligi o'ziga xos xususiyatlarga ega edi.

QADIMIY podshoxlik kostyumi

(miloddan oldingi 2000—2400 yy.)

Bu davrda, asosan, erkaklar faqat bir kiyim — peshband "**sxenti**"ni kiyganlar. Ular shakli to'rt burchak yoki trapetsiyasimon bo'lib, o'lchamlari har xil edi. Sxenti belga ingichka charm kamar yoki tasma bilan biriktirilardi. Sxenti gavdaning orkasida burmalanardi, oldida esa kator ritmik taxlamalar qilinardi. Sxentining ustidan yoki tananing ustiga to'rt burchakli peshband kiyishgan. Boylar kuyimi zigir tolali matodan, qo'llarniki esa dag'al teridan qilinardi. Faqat fir'avn, vazirlar, kohinlar va boy er egalarining kiyimlari bezatilar edi.

Fir'avnning saltanat belgisi ilon "**urey**" va kal-xat bilan bezatilgan toj edi. Uning ikkinchi bosh kiyimi "**plat**" bo'lgan. U trapetsiyasimon shaklli bo'lib, yo'l-yo'l matodan tiqilar edi, peshonasida esa tor tasma yoki metall chambarak bilan mahkamlanardi.



2-rasm. Mertseger ma`budasi. egnida gavdasiga yopishib turadigan kalaziris.

Bo'yinga taqiladigan yumaloq marjon yoqa erdagi turmush manbai — kuyosh ramzini ifodalardi. YOqa bir necha qavat elimlangan matodan tayyorlanib, tasvirlar bilan



3-rasm. Izida Ramzes va uning o'g'lini qabul qilayapti. Amen-xer Xopshefning (XX sulola) maqbarasidan devoriy tasvir. Malikalar vodiysi, Fiva, YAngi Podshoxlik fir'avnlarning saroy marosimlari uchun kiyim (erkaklar, ayollar va bolalar kostyumi).

bezatilardi yoki tursimon tuqilib, qimmatbaxo toshlar bilan bezatilardi.

CHo'pon hassasi va sun'iy oltin soqol ibtidoiy qabilalardan qolgan ramziy belgidir. Sokolni tasma yordamida ko'zoynakga o'xshatib quloqqa mahkamlanardi. Fir'avning soqolida ham "urey" qilinardi.

Misrliklar sochlarini butunlay olib tashlab, boshlariga o'simlik tolalaridan yoki jundan yasalgan parik kiyishardi. Bu pariklar ham bosh kiyim hisoblanib, boshni issiqdan saqlardi. Parikning katta-kichikligi va uning shakli shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi. Yirik er egalari bir necha kokildan iborat bo'lgan parik kiyishardi, mayda er egalari va qullar esa kichik parik kiyishgan.

Kohinlarning kiyimi qimmatbaho kamar bilan bezatilgan. Ibodat qilish paytida ular koplon terisini yoki kalxat va boshqa niqoblarni kiyishgan.

Ayollar kiyimining shakli oddiy bo'lgan. U ikkita to'rt burchak matodan tiqilgan ko'ylak "kalaziris" edi (2-3-rasmlar). Kalaziris ko'krakning pastidan boshlanib, tovongacha etardi va bitta yoki ikkita keng tasma yordamida elkada ushlanardi. Bu kiyimni barcha ayollar, hattoki fir'avn oila a'zolari va qullar ham kiyishgan. Ijtimoiy farqi faqat matoda bo'lgan: boylar — yupqa gazmoldan, qullar va dehqonlar esa dag'al matodan kiyganlar.

Bu davrning oxirida kiyimlar shakli o'zgara boshlaydi. YAngi, mukammalrok sxenti paydo bo'ldi. Burmalar va plissirovka bilan bezashga intilish boshlandi. Kiyimlarning rangi qizil, zangori, yashil bo'lgan. Duradgorlik rivoj topishi bilan sarik, jigar rang va feruza ranglar kirdi.

Oyoq kiyimi qamishdan to'qilgan shippaklar edi.

O'RTA PODSHOXLIK KOSTYUMI

(miloddan oldingi 2400—1700 yy.)

Bu davrda viloyatlarning bir-biridan ajralib ketishi o'z-o'zi bilan ovora bo'lib qolgan hayotga olib keldi va shunga qaramasdan fir'avnning huquqi birmuncha oshdi.

Bu davr san'at yodgorliklarida sxentining ustidan yupqa matodan qilingan peshbandlar tasvirlangan. Ular to'rt burchak shaklli bo'lib, sal-pal burmalangandi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lib, burmalari xali bir xil, didsiz qilingandi.

Oddiy aholida oddiy sxenti va kalaziris saqlanib qolgandi.

YAngi podshoxlik kostyumi

(miloddan avvalgi 1580 - 1090 yy.)

Bu davr misrliklarning giksosslardan ozod bo'lganligi bilan farqlanadi. Keng tashqi savdo ichki bozorda yangi noma'lum xashamatli narsalarning paydo bo'lishiga va san'atning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Kiyimda sinfiy farq, oldingidan ham ko'proq sezilardi. Aslzodalar va kohinlar kiyimi matosining yupqaligi bilan, tilla va sirlangan bezaklar, serburmalar va plissirovkalar bilan farqlanishi bilan birga harir bo'lgan ip va zig'ir matolardan tiqilgandi. Xilma-xil ranglarga bo'yalgan matolarni ayol qullar kashtalardi.

SHu yangiliklarning kirib kelishiga qaramasdan kiyimning shakli o'zgarishi joriy qilingan chegaralarda sodir bo'lgandi. Tor, tanaga yopishib turgan kiyimga intilish, hattoki, burmalagan kiyimlarda ham sezilardi. SHu sababdan odamlar yo'rgaklanganga o'xshash bo'lgan va ularning harakatlari yodlangandek edi.

Bu vaktida erkak va ayollar kiyimlarining bir-biriga o'xshashi qayd qilingandi. erkaklarning kiyimi plissirovka qilingan yubka va yopinchoqdan iborat edi. Katta yumaloq yoqa — marjonni faqat fir'avn va uning oila a'zolari kiyibgina qolmay, balki, boy tabaqalar ham kiyim turlari: sxenti, uch burchakli peshband va boshqa kohinlik anjomlari saqlanib qolgandi.

Kambaral aholi tabaqalarining kiyimlari oddiyligicha qoldi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lsa ham, tor ko'ylak kalaziris saqlanib qolgandi.

Misrliklar bosib olgan Suriyadan erkak va ayollarning kiyimiga plashch — *naramnik* kirdi. Bu ikki bukilgan to'g'ri to'rt burchak shaklli matodan tiqilgan va boshi uchun kesim qilingan, yoni tikilgan uzun kiyim edi.

Askarlar charmli peshband va ko'krak pech kiyishgandi.

Misrliklar oyoq kiyimi juda oddiy bo'lgan. Bu charm yoki qamishdan ishlangan shippak edi.

Ularning kostyumlarida har xil bezaklar bo'lgan: qo'l va oyoq bilaguzuklari, uzuklar, marjonlar, sirg'alar, tilla va sirdan yasalgan tilla qoshlar va b. Kambag'allar esa chinni pasta va sirlangan loydan yasalgan bezaklarni taqishgan.

Erkak va ayollarning bosh kiyimlari juda xilma-xil va murakkab bo'lgan.

Ularning shakli va bezagi shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi.

Ayollar yuziga pushti-qizil yog' upani surgan, qosh va kipriklarini qoraga bo'yashgan. erkaklar esa kipriklarini yashil rangga bo'yar edilar. Qo'l va oyoq tirnoqlarini esa maxsus o'simlik (*genna*) bilan qizg'ish sariq rangga bo'yar edilar.

Misrda paydo bo'lgan badiiy elementlar keyinchalik boshqa madaniyatlarga ham ta'sir etib, rivojlanib, Evropa kostyumiga ham kirgan va hozirgi zamongacha saqlanib kolgan.

Nazorat savollari :

1. Qadimiy podshohlik kostyumidagi gazlama, rang, naqshlari qanaqa?
2. O'rta podshoxlik kostyumidagi rang, naqshlari qanaqa?
3. Qadimiy Misrning sinfiy jamiyatini izohlang?
4. Qadimiy Misr kostyumlari nimaga asoslangan?

Tayanch iboralar :

Tasviriy san'at, nafosat, kohinlar, urey, plat, kalaziris, plassirovka, naramnik, sxenti, peshband, shippak.

Ma`ruza 2

Mavzu : QADIMIY RIM KOSTYUMI

Reja :

1. Qadimiy Rimning tarixi
2. Erkaklar kostyumi
3. Qirmizi rang saltanat
4. Kostyumga qo'shimcha bezaklar
5. Ayollar kiyimi
6. Ayollarning ustki kiyimi

Adabiyotlar :

1. Н.М. Каминская История костюма М., 1986.
2. Л. Орлов Азбука моды. М. 1989.
3. G.K. Xasanboeva, V.A. CHursina. «Kostyum tarixi»T., 2004.

Qadimiy Rimning tarixi miloddan avvalgi III asrda boshlanib, milodning V asrida qullarning ko'zg'oloni va vahshiy qabilalar hujumidan keyin nihoyasiga etgan edi. Rim mamlakati harbiy imperiya bo'lgan.

Rimning tarixiy taqdiri uning tabiiy sharoitlari bilan asoslangan edi. Serhosil erlarning kamligi Rim jamiyatining harbiylashtirilishiga sabab bo'ldi va rimliklarni bosqinchilik urushlariga olib keldi. YAshash uchun kurash rimliklarni qiyinchiliklar bilan kurashga chorladi, og'ir turmush sharoiti esa ularni juda ishbilarmon odam qildi.

Rim jamiyatining aniq, sinfiy tabaqalanishi qadimiy rimliklarning kostyumida o'z ifodasini topdi. Bir tomonda erkin aholining murakkab, hashamatli, yorqin va rang-barang kiyimlari bo'lsa, ikkinchi tomonda esa, qullar va kambag'allarning oddiy dag'al kiyimlari bo'lgan.

Lekin Rim jamiyatida quldorlar orasida ham tengsizlik bor edi. Ayniqsa, sinfiy tabakalanish Rim imperiyasida (I—V asrlar) kuchayib ketgan edi. Aholining har xil tabakalarining kiyimi ularning jamiyatda egallagan o'rni bilan bog'liq edi. Ba'zan, kostyumda maxsus belgilar uchrar edi. Kiyimda zamon ruhidagi dabdabalik misli kurilmagan darajaga etib, ma'naviy madaniyatni juda past darajaga tushirdi.

Qadimiy rimliklarning kiyimi respublikachilik davrida yaratilgan. Jangovar jangchi va basavlat ayollar ularning estetik ideali bo'lgan. Murakkab kiyimlar gavdaga savlat va salobat baxsh etgan.

Kiyim tayyorlash uchun kullangan matolar: jun, zig'ir va sharkdan olib kelingan harir shoyilar bo'lgan. Kostyumda yorqin ranglar kullanar edi: qizil, binafsha, to'q qizil (qirmizi) va sarik. Oq rang tantanali deb hisoblanardi.

CHetdan qaraganda, rimliklarning kostyumi Yunonlarnikiga o'xshash bo'lib, ammo bu o'xshashlik faqat niqobiy edi, chunki Yunonlar va rimliklarning kostyumlari drapirovkalanardi. Ammo Rimda odamning go'zalligi to'g'risidagi tasavvur va kostyumning estetik baholanishi YUno-nistonga nisbatan mutlaqo boshqa edi. Rimda go'zal odam tanasiga sig'inishmas edi. Rimda iqlim sovuqroq bo'lgani uchun kiyimlar yopiq bo'lib, issiq saqlashi kerak edi. Bundan tashqari, Rimning oliy tabakalari Yunonlarga nisbatan boshqacha bo'lgan. Ular ishlamagan va shuning uchun ularda tananing mashk qilishiga ehtiyoj yo'q edi. Rimliklarning kostyumi, harbiy kostyumdan tashqari, tez harakat qilishga imkoniyat bermas edi. Umuman, sekin yurish, kostyumdagi benuqsonlik va sun'iy harakatlar nazokatning cho'qqisi deb hisoblangandi.

Erkaklar kostyumi. Rimliklar kostyumining asosi ichki kiyim "*tunika*" va ustki kiyim "*toga*" bo'lgan.

Ularning ko'rinishi Yunonlar kiyimiga o'xshash edi, ammo bichimi va mohiyati bilan farqlanardi.

Tunika — to'g'ri shaklli, engli, bichilgan ichki kiyim bo'lgan. Uning asosiy turlari "*kolombium*", "*talaris*" va "*dalmatika*" bo'lgan.

"*Kolombium*" — uzunligi boldirgacha bo'lgan, keng emas, kalta engli tunika. "*Talaris*" — boylarning uzun engli tunikasi. "*Dalmatika*" — uzun-roq, keng engli, yoyilib turganda xoch (krest)ga o'xshagan kiyim. SHuning uchun dalmatikani

nasroniy kiyishgan (rimliklar avval butparast edilar, I asrdan boshlab nasroniylilikni qabul qilishgan).

G'olib sarkardalar kiyishgan qirmizi rangli tunika eng bashang kiyim edi. Uni pal'mettalar bilan kashtalangan qirmizi matodan tikishardi. Senatorning tunikasi vertikal qizil chiziq bilan bezatilardi va shu bilan u farqlanardi.

Salqin paytlarda rimliklar baravariga bir necha tunika kiyishardi. Misol uchun, imperator Avgust birdaniga to'rtta tunika kiygandi.

Tunikada, u ichki kiyim bo'lgani uchun, kuchada yurish mumkin emas edi.

Rimning ramziy ustki kiyimi "*toga*" bo'lgan. Uni faqat erkin rim fukarolari kiyishi mumkin edi. CHet elliklar va qullarga togani kiyish man etilgandi.

Toga katta to'g'ri to'rtburchak (6x1,8 m) yoki ellipssimon jun mato parchasidan qilinardi. Toganing murakkab drapirovkalarini hosil qilish juda qiyin edi, shuning uchun bu ishni qullar bajarardi.

Qirmizi rang saltanat ramzi bo'lgan. Qirmizi rangli togani faqat imperator kiyishi mumkin edi. Qirmizi chiziqda "*toga preteksta*"ni magistrat, tsenzor, pretor, kvestor va kohinlar kiyishi mumkin edi. Saqlanib qolgan qadimiy odatga binoan, toga protekstani 17 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar kiyishardi. 17 yoshga to'lgan kundan boshlab ular oq togani kiyar edilar, bu balog'atga etganlik ramzi edi.

Togadan tashqari "*latserna*" tantanali plash, deb hisoblanardi. Latsernaning uzunligi tizzagacha bo'lib, unga qo'llangan matolar juda qimmatbaxo, ya'ni tilla va kumush bilan to'qilgan edi. Odatda, uni orqaga tashlab, ikki elkani yopishar va ikki uchini bo'ynining oldida maxsus tuka "*fibula*" bilan biriktirib qo'yishardi. Keyinchalik latserna o'zgara boshladi va oddiy matodan qilingan oq toganing ustidan kiyadigan plash bo'lib qoldi.

Rim imperatori va yuqori lavozimli shaxslar, odatda, "*poludamentum*" — o'rtacha hajmli, uzunligi tizzadan sal pastroq, plash kiyishgan. Poludamentumni orqaga va chap elkaga tashlab, ung elkada fibula bilan kis-tirib kuyishgan. Ba'zan, uni sharsimon taxlab, chap elkaga tashlar edilar va uni bir necha marotaba chap qo'lga o'rashardi.

Jangchilar katta bo'lmagan jun mato parchasidan qilingan plashch "*sagum*"ni kiyishardi. Kambag'allar va qishloqliklar dag'al jundan plashch "pengla"ni kiyishgan. Uning shakli yarim doira yoki doira edi, bosh uchun kesim qilib, kapyushon tikib qo'yar edilar. Biroq, ko'pincha qimmatbaho matodan qilingan penulani rimlik oliftalar ham kiyishgan.

Rimliklar ishton kiyishmagan. Biroq shimolda ular bu kiyim turini ko'chmanchi qabilalardan olishgan. III asrdan boshlab ko'p rimliklarning garderobiga ishton kirgan edi, ayniqsa harbiylarda.

Erkin rimliklarning oyoq kiyimi shippak va nimetik bo'lgan. Ular toga bilan kiyilishi shart edi. SHippaklar tasma yordamida oyoqqa mahkamlanardi. Ular rang-barang charmdan tayyorlanib, kumush va oltin tukalar bilan bezatilardi. Kambag'allar va qullar oddiy yog'ochdan tayyorlangan boshmoqni kiyishgan.

Rimliklarning soch turmaklari har xil edi. Sochlari jingalak yoki silliq bo'lgan. Odatda, ular soqollarini qirib tashlar edilar, ammo kichkina jingalak qilingan soqol ham qo'yishgan.

Kostyumga qo'shimcha bezaklar: uzuklar, tukalar, yumaloq "*bullae*"lar va

gullar, yaproqdan gulchambarlar taqishgan, harbiy sarkardalar oltindan yasalgan gulchambarlar bilan yasanishgan.

Ayollar kiyimi. Rimda ayollarning o'zni Yunon ayollariga nisbatan boshqacha bo'lgan. Ular katta yuridik huquqlarga ega bo'lib, izzat-hurmat qilinardi. Ammo Yunoniston va Rimning ijtimoiy tuzumining o'xshashligi va Yunon madaniyatining ta'siri natijasida qadimiy Yunon va rim ayollarining qiyofasida o'xshashlik bor edi.

Qadimiy rim ayollari kiyimining badiiy tomoni shaklni drapirovka yordamida yaratishga asoslangan, ammo rimliklar kiyimining drapirovkasi Yunonlarnikiga o'xshash plastik bo'lmagan.

Ayollar kiyimi tunika, "*stola*" va "*palla*"dan iborat edi.

Oldingi bezak elementlari kiyimda ko'p joy egallamas edi. U vaqtda kiyim tor va to'g'ri shaklli tunikadan iborat edi. Tunikaga tiqilgan yumshoq charm tasma ko'krakni ushlab turar edi.



1-rasm. Rim haykallaridan nusxalar. Ayollar kostyumi: stola va palla.

Tunikaning ustidan kengroq, uzun, xitonsimon "*stola*"ni kiyishardi. Agar tunika engli bo'lsa, stola engsiz edi va aksincha. Stolani belbog' bilan borlashardi, ortiqcha uzunlikdan "*buf*" hosil qilishardi. Ko'pincha stolani ikkita belbog' bilan bog'lashardi: odatda, birining ustiga ikkinchisini ko'ndalang qo'yib mahkamlanardi. Tunika va stolaga qo'llangan matolar har xil edi: qalinrog'i ichki kiyimga, yupqa va qimmatbahosi — ustki kiyimga. Stolaning etagi keng kuyma burma "*instita*" bilan bezatilardi.

Ayollarning ustki kiyimi Yunonlarning gimatiyiga o'xshagan *yopinchiq*, "*palla*" bo'lgan. Uni turli usulda kiyishgan. Plashch palla gavdaning atrofida aylana drapirovka qilinardi. Uydan chiqqanda rim ayollari boshlarini va yuzlarini tur bilan berkitishardi.

YOsh qizlar pallaning o'rniga kalta, tizzadan yuqorida bo'lgan "*tunika interior*"chi kiyishgan. Balogatga etganda va to'y kunida ular tor, uzun belbog'siz "*tunika tekta*"ni kiyishgan.

Imperiya davrida boylikka intilish ayollarning kiyimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xilma-xil ranglarga bo'yalgan yupqa matolar paydo bo'lgan. Ayniqsa, Yunon va Ossuriya ipaklari boshqa shoyi gazmollardan afzalroq hisoblangan. SHoyi matolarga qiziqish shunchalik zo'r ediki, hattoki 1 qadoq shoyining narxi 1 qadoq oltinga teng edi.

III—IV asrlarda asta-sekin drapirovka yo'qoladi. Qimmatbaho, og'ir, yirik naqshli matolar Yunon va Ossuriya matolarining o'rniga keladi. Kiyim og'ir, shakli yassi va tananing go'zalligini ko'rsatmaydigan bo'ldi. Plastik stolaning o'rnini uzun, tor, keng engli, qalin gazmoldan qilingan "*dalmatika*" egalladi.

Rim kambag'al aholi dag'al matodan qilingan tunika va palla kiyishardi. Ko'chaga chiqqanda ular boshlariga pallani o'rab yurishardi.

Boy ayollar kashta va metall tuka bilan bezatilgan yumshoq boshmoqni kiyishgan. Ularni qizil, oq, tuk sarik (zafaron) charmdan qilishardi.

Rim patritsiankalarining soch turmaklari xilma-xil va murakkab bo'lgan. Ular sochlarini to'g'ri farq ochib, sillik tarashar, ba'zan uzun koqillar yoki Yunonlarnikiga o'xshash pricheskar qilishardi. Lekin karkasda mahkamlangan koqillardan qilingan baland pricheskar, darhaqiqat, rim ayollariniki bo'lgandi. Agar o'zining sochi etmasa, sun'iy sochlarni qo'llashardi.

Patritsiankalar o'z kiyimini oltin, marvarid va qimmatbaxo toshlardan yasalgan zargar buyumlari bilan bezatar edilar. Kiyimga qo'shimcha qilib patdan yasalgan elpig'ich olib yurishardi.

Rim matronalari suxbat paytida, ko'pincha, qo'lida qaxrabo (yantar) soqqa ushlab turar edilar. Ayollar ko'p miqdorda har xil kosmetik vositalarni ishlatar edilar: xidli yog'lar, sirkalar, upa va boshqalar.

Rim imperiyasi barbod bo'lgandan keyin (476y.) antik quldorlik dunyosi ham yo'qoldi. Qadimiy dunyo tarixining so'nggi bosqichi yakunlandi. Lekin ularning yaratgan madaniy merosi jahon tarixida muhim o'rin egallaydi.

Nazorat savollari :

1. Qadimiy Rim kostyumidagi gazlama, rang, naqshlari qanaqa?
2. Qadimiy Rim kostyumlari qanaqa matodan tiqilgan?
3. Ayollar kiyimi qanaqa rang ?

Tayanch iboralari :

Stilizatsiya, estetika tasavvur, xiton, gimatiy, palladium, kirasa, ekzomida, knemides, Spartak, geometrik tasvir, burgund modasi, tabar.

Ma`ruza 3
Mavzu : QADIMIY YUNON KOSTYUMI

Reja :

- 1. Bolqon yarim oroli janubi turmush tarzi.**
- 2. Antik san`at**
- 3. Erkaklar kostyumi**
- 4. Ayollar kostyumi**
- 5. Ayollar bosh kiyimlari**
- 6. Oyoq kiyimlari**
- 7. Jangchilar ichki kiyimi**

Adabiyotlar :

1. Н.М. Каминская История костюма М., 1986.
2. Л. Орлов Азбука моды. М. 1989.
3. G.K. Xasanboeva, V.A. CHursina. «Kostyum tarixi»T., 2004.

Qadimiy tsivilizatsiyalarning badiiy merosida Yunoniston va Rim ustalarining ijodi muhim o`rin egallaydi.

Yunonistonning ajoyib madaniyati Bolqon yarimorolining janubida miloddan avvalgi VII—I asrlarda ravnaq topgan. Uning tabiiy sharoiti, iliq, dengiz iqlimi, serxosil vodiylari va tor yaylovlari, boy foydali qazilmalari Qadimiy Yunonlarning asosiy turmush tarzini ifodalaydi.

Yunonistonning siyosiy tuzilishi qadimiy shark istibdodlardan keskin farqlanardi. Yunoniston quldor mamlakat bo`lsa ham, uning asosi demokratiya edi. erkin aholi teng xukuklarga ega edi. Barcha muhim masalalar kengash va ovoz berish yordamida echilardi.

Qishloq xo`jaligi, xunarmandchilik va savdo iqtisodning asosi edi. Miloddan avvalgi V asrda mamlakatda san`at ravnaq topgan va bu asr Yunoniston tarixida "oltin" asr deb ataladi. San`at asarlarida quldorlik demokratiyasining rivojlanishi, urf-odatlar, ozod ellarning qarashlari va didlari yorqin ifodalangan. SHu davrda Afinada qurilish, shahar markazini tiklash, yangi ibodatxonalarni va ijtimoiy binolarni (maktab, stadion va b.) qurilishi juda yuksak darajaga erishgan. Bu vaqtda ulug` Fidiy, Miron, Poliklet ajoyib haykallar va muxtasham binolar bunyod etganlar; Sofokl va Evripid tragediya va she`rlar yozgan va boshqa taniqli yozuvchilar, olimlar, faylasuflar ijod etgandi.

Bu davrda inson barkamolligi shuxratlangan. Mard va har tomonlama barkamol, mukammal odam siymosi estetik ideal bo`lgan. Kuch, go`zallik, sport bilan shug`ullanish natijasida garmoniyaga oid rivojlangan tana chiroy uchun eng zarur namuna bo`lgan. Yunonlar insondagi sog`lik va go`zallikni oldingi o`ringa, boylikni esa, keyingi o`ringa qo`yar edilar.

Yunonlarning dini afsonalardan ayrilmas edi. Ular tushunmagan narsalarga

odam qiyofasini bergan edilar. "Xudolarni o'ziga qaratish uchun, ularga odam qiyofasini berish kerak" deb uylashgan. Yunonlarning xudosi ide-allashgan mukammal odamning siymosi bo'lgan. Xayvonlar esa, san'atda insonga buyso'ngan va tabiat kuchini ifodalovchi bo'lib afsonalarga kirgan.

Vatanparvarlik, yuqori ong, barkamol insonning cheksiz qobiliyatiga ishonish, badiiy tilning oddiyligi va ifodaliligi, sharoitni to'g'ri aks ettirish — antik madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri edi.

Antik san'at Evropa madaniyatining kelajagida muhim ahamiyat kasb etgan.

Antik san'atdagi inson go'zalligi to'g'risidagi tasavvurlar mujassamlanib, tarixda birinchi marotaba odamning tanasi va ruhi go'zallik, estetik idealning asosiga olingan. Polikletning nazariy asarida ulchov birligi sifatida odamning buyi olingan.

Yunon jamiyatida ayollarning xukuklari cheklanganiga qaramasdan, ular siymolari san'atda sog'lom, yaxlit shaxe va har tomonlama barkamol ifodalangan edi; Misol uchun, Afrodita iloxining (Venera Miloskaya) hay-kali hozirgacha ayollarning go'zallik timsoli hisoblanadi.

Yunonlarning turmush tarzi va estetik tasavvurlari ta'sirida kostyumlari shakllangan. Kulay iqlim, odam tanasiga estetik karash antik Yunon kostyumi shakllarining uyg'unligini va engilligini aniqlagan edi.

O'z kiyimlari uchun Yunonlar yumshoq, to'qilib turadigan, yaxshi burmalanadigan matolarni qo'llagan edilar. Matolarni qo'lda tukuv dastgohda ishlab chiqarar edilar. Tukuvchilik mahorati yuqori baholanardi. Afsonalar bo'yicha barcha Olimp iloxlari va boshqa a'zolari mashxur to'qimachilar bo'lishgan va o'zaro shu kasbda musobaqalar o'tkazishgan.

Yunon matolarining tola tarkibi jun va zig'ir bo'lgan. Paxtani ular birinchi marotaba Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulkarnayn)ning harbiy yurishlarida Xindistonda kurishgandi.

Yunonlarni kostyumning, asosan, plastik tomoni kiziktirgani uchun, ular kiyimda sidirg'a matolarni qo'llashgan. Ko'k, qizil, to'q qizil, yashil, sariq, jigar-rang va, asosan, oq ranglar uchrardi. Kul va jigar ranglar motam ranglari edi. Sidirg'a gazmollar kashtalangan, applikatsiya qilingan yoki tasvirlangan xoshiyalar bilan bezatilgan. Yunon navdiining belgi ma'nosi bo'lmagan. Me'morchilikda va amaliy san'atda naqsh buyumning bezagi bo'lgan. Naqshlar o'simlik shakllaridan uyg'unlik asosida ishlangan. Ikkinchi manba — geometriya bo'lgan. U go'zal, u san'at, har qanday shaklning asosi deb hisoblangan. O'simlik va geometrik tasvirlar, stilizatsiyalashgan tasvirlarda meandr, Krit tulkini va pal'mettalar eng ko'p uchragan.

San'atning barcha turlari kabi Yunonliklar uchun kostyum yaratish ijod edi. Matoning plastik xususiyatlaridan go'zallikni yaratib, Yunonlar go'zallik qonunlari bo'yicha mato bilan ishlash mahoratini o'rganishgan.

Har xil yo'nalishlarda joylashgan, tana shaklini ko'rsatadigan va harakatlarga binoan o'zgaradigan burmalar kostyumning estetik asosi bo'lgan edi. Yunon kostyumini yaratish uchun gazmolning shunday fakturasini tanlash kerak ediki, qaysiki yaxshi taxlanib, naqsh va bezaklar bilan uyg'unlashsin. "Odamning aqli bovar qilmaydi, qanday qilib qadimiy Yunon va rimliklar shunday go'zal, o'ziga xos garmonik drapirovkalarni o'ylab topishgan"



1-rasm. Burtma tasvir. erkaklar xiton va xlamidada, ayollar — xiton va gimatiyda.

Yunon kostyumining tuzilishi asosida turnab qo'yilgan, mahkamlangan yoki gavgdaga o'ralgan gazmol parchasi edi. Matoning eniga, uzunligiga, maxkamlangan joyiga, taxlanish usuliga, buqilish, o'ranish va joylanishiga qarab kostyumning har xil turlari yaratilgan.

Erkaklar va ayollar kiyimining asosiy turlari ko'ylak "xiton" va yopinchoq "gimatiy" bo'lgan. Ular to'g'ri to'rtburchak shaklida zig'ir yoki jun matolardan qilingandi.

Erkaklar kostyumi. erkaklar xitoni (1-rasm) kupincha bir parcha matodan qilinardi. YOn tomonidan qo'li uchun joy qoldirib tiqilardi. Ba`zan, xitonning yon tomoni ochiq qoldirilar yoki eng qilinardi. Bunday xiton yaxlit to'qilardi. Odatda, xitonning uzunligi tizzagacha bo'lgan, uzun xitonni esa kohinlar va aktyorlar turli marosimlarda kiyishgan. Xitondan, odatda, uyda yoki ichki kiyim sifatda foydalanishgan.

Eng keng tarqalgan ustki kiyim yopinchoq "gimatiy" to'g'ri to'rtburchak (1,7x4 m) jun matodan qilinardi. Uning eng keng tarqalgan kiyish usuli: sal drapirovkalanagan yoki taxlamalar hosil qilingan, bir tomoni chap elkadan ko'krakka tushib turgan, ikkinchi tomonini esa orqadan o'ng qo'lining tagidan o'tkazilib, chiroyli taxlamalar bilan joylashtirilar edi.

Kengroq va uzunroq gimatiyni "pallium" yoki "palladium" deb atalgan va uni dramaturglar, notiqalar kiyishgan. Bu kiyim odamning tashqi ko'rinishiga ulug'vorlik salobatini berar, drapirovka gavgdaning plastik egiluvchanligini ta`kidlardi. Drapirovkalarning to'g'ri, aylana va egri yo'nalishda joylanishi va bitta elkadagi markazga yig'ilishi tananing harakatlariga muvofiq bo'lib, bu obrazning dinamikligini ta`kidlar edi.

Yunonlarning ustki kiyimi gimatiydan tashqari yopinchoq "xlamida" ham bo'lgan. Uni sayohatchilar va jangchilar kiyishgan. U ham to'g'ri to'rtburchak matodan qilinib, gimatiyga nisbatan kaltarok edi. Xlamida elkaga tashlanardi va chap yoki o'ng elkaga to'g'nag'ich "fibula" bilan mahkamlanardi. erkin tomonlari chiroyli faldalar naysimoi burma bilan to'qilib turardi, bir kuli ochiq qoldirilardi. Odatda,

xlamidani bosma movutga o'xshagan jun matodan tayyorlashgan.

Yunonlar, ko'pincha, boshyalang yurishgan, ammo sayohatga keng soyabonli yumaloq, fetr shlyapa kiyishgan.

Jangchilarning ichki kiyimi kalta xiton bo'lgan, uning ostidan metallardan peshband kiyishgan. Xitonning ustidan sovut "kirasa", boshga dubulg'a (shlem) kiyishgan. Boldirni "knemides" bilan ximoya qilishgan. Ustki kiyimi xlamida bo'lgan.

Kosiblar va qullar, odatda, engsiz yoki kalta engli dag'al jun matodan xiton kiyishgan. Qullar esa, o'ng tomoni ochiq "ekzomida" yoki ishlagan paytda peshband kiyishgan.

Ayollar kiyimi. Yunon jamiyatida ayollarning xuquqlari cheklanganiga qaramasdan, avlodlar tarbiyalagan go'zallik tuyrusi, umumiy madaniyat rivoji Yunon ayolining kiyim bichimini aniqlar edi. Kiyim ayol qomatining chiroyini ko'rsatishi, to'qilib turishi lozim edi.

Insoniyat tarixida Yunonlar birinchi bo'lib topgan drapirovkalarining joylanishi va ritmikasi badiiy birlik qonuniga itoat etgan.

Ayollarning kiyimlari erkaklarnikiga nisbatan xilma xil bo'lgan. Asosiy kiyimi hisoblangan xiton va gimatiydan tashqari boshqalari ham bor edi.

Xitonning bir necha turi bo'lgan: qaytarmali (yoqasimon) xiton "diplodiy", keng"ionik" yoki tor "darik" xitonlar. Diplodiy odamning buyidan 60-70 sm o'zunrok to'g'ri to'rtburchakli matodan qilinib, yon tomonlari tiqilmasdi. Tepa tomoni esa qaytarilardi va elkasi to'g'nag'ich "fibula" bilan mahkamlanib, drapirovkalanardi. Xitonning qaytarmasi boshqa rangli mato bilan yoki kashta bilan bezatilib, diplodiyning erkin faldalari va drapirovkalari bilan uyrunchashgan.

Eng oddiy xiton — darik xitoni edi. U buy baravar bir parcha matodan qilinib, elkasi fibulalar bilan maxkamlanardi, yon tomoni esa ochiq, tiqilmasdan qolardi. Ba'zan u ikkita parcha matodan, orqa bo'lagi uzunroq, qilinib, boshga yopinchoq, sifatida tashlanardi

Spartan qizlari ung tomoni tiqilmagan va elkasi biriktirilmagan xiton "peplos"ni kiyishgan. Odatda, Afina peplosda tasvirlanardi.

Eng murakkab, ser drapirovkalanagan go'zal ayollar kiyimi — ionik xiton bo'lgan. U ikki parcha keng, uzun, yumshoq matodan qilinib, elkasi ko'pgina fibulalar bilan maxkamlanib, ser drapirovkalarni hosil etardi.

Xitonlar belidan, ko'kraging pastidan yoki bo'ksasidan belbog' bilan bog'lanardi, ortiqcha uzunligi belborning ustidan tushirib kuyilib, "klopos"ni hosil etardi. Ba'zan xitonlar ikki joyidan bog'lanardi, ayniqsa, ionik xitonlar turli usulda borlanar edi

Ayollarning ustki kiyimi xilma-xil drapirovkalanagan gimatiy edi Ayollar gimatiyi erkaklarnikiga nisbatan kichikroq ammo ko'rinishi go'zalroq, edi.

Ayollarga kuchaga xiton va gimatiysiz chiqish takiklangandi, erkaklar esa gimatiyni xitonsiz kiyishardi.

Xunarmand va savdogar tabakaga mansub ayollar jun yoki zig'ir matodan sipo xiton va gimatiy kiyishgan, ko'chaga chiqqanlarida gimatiy bilan boshlarini ham yopishgan.

Qullar, odatda, o'z milliy kiyimini kiyishardi.

Yunon ayollari xusniga go'zal soch turmaklari (priches-kalar) yanada xusn kushardi. Sochlari uzun bo'lib, Gomerning "tillajingalak" sochlari eng chiroyli hisoblanardi. Sochni orkaga turmaklash usuli "korimbos" klassik usul, deb hisoblanardi. Ayollar ko'pincha sochini tasmalar va turlar bilan bezatishardi.

Ayollarda bosh kiyim asosan bo'lmagan, ular namgarchilikda gimatiyni boshga tashlab yurishgan yoki dumaloq, poholdan qilingan shlyapa "foliya"-ni kiyishgan.

Ayollarda kiyimga qo'shimcha soyabon va bargsimon elpig'ich bo'lgan. Oyoq, kiyimlari turli shaklli shippaklar edi. Ular yorokin rangli charmdan qilinib, oltin va kumush bilan bezatilardi.

Zargarlikda Yunoniston yuksak mahoratga erishgan. Sirg'alar, marjonlar, kameya va intaliyalar, uzuklar, zanjirlar, tillakosh "*diadema*"lar, bilakuzuklar oltin va kumushdan ishlangan va qimmatbaho toshlar kadalib, uyma naqshlar bilan bezatilgandi.

Yunon ayolini kosmetikasiz tasavvur qilish mumkin emasdi. Ular bronza oynaga qarab yuzlarini qizilga, lablarini, kosh va kipriklarini bo'yashib, atirlar separ edilar. Atirlari nozik flakon "*leki*"larda saklanardi, bu idishlar xakikiy san'at asari bo'lgan.

Insoniyat kup marotaba Yunonlar kiyimiga o'xshash kiyim yaratishga intildi, ammo qadimiy Yunonistonda o'ziga xos sharoitlarda san'at asosida yaratilgan kostyumlarning plastik go'zalligi faqat o'z davri sharoitida kamolotga erishishi mumkin. Lekin antik kostyumning asosiy badiiy elementlari — umumiy plastik shakli, mutanosibliklari, drapirovka ritmlari Evropa madaniyatining boyligi bo'ldi va keyingi davrlarda Evropa kostyumining rivojlanishiga ta'sir kursatdi.

Nazorat savollari :

1. Qadimiy Yunon kostyumidagi gazlama, rang, naqshlari qanaqa?
2. Qadimiy Yunon kostyumlari qanaqa matodan tiqilgan?
3. Ayollar kiyimi qanaqa rang ?

Tayanch iboralari :

Go'zallik, antik san'at, meandr, xiton, pallium, diplodiy, fibula, peplos.

Ma`ruza 4.

Mavzu: G'arbiy Evropa kostyumi (V - XX asrlar)

Reja.:

1. Kostyumning tuzilishi
2. U - XX asrlardagi kostyumlar
3. Aellar va erkaklar kiyimlari
4. Ilk o'rta asrlar davri
5. Kech o'rta asrlar davri
6. Gotika arxitekturasini
7. Ritsarlar kostyumi
8. Ayollar oyoq kiyimi

Adabiyotlar :

1. Н.М. Каминская История костюма М., 1986.
2. Л. Орлов Азбука моды. М. 1989.
3. G.K. Xasanboeva, V.A. CHursina. «Kostyum tarixi»T., 2004.

O'rta asrlar davrida yangi go'zallik ideali - bibi Mar'yam, xudoning onasi timsoli paydo bo'ldi.

XII - XIII asr 1-yarmi. erkak va ayollar kiyimi uzun, yopishib turadi, Kiyim ort kien O'RTA va yon qirqimlar orqali va bel satxida ovalsimon qirqimli chokning shnur orqali utkazilishi okibatida yopishib turardi.

XIV asr 2-yarmi va XV asr 1-yarmi (tonika davri). erkaklar kalta kiyimining paydo bo'lishi. Birinchi bo'lib ritsar' kostyumi yaxlit metall (detallari sharnir bilan biriktirilgan) kol'chuka paydo bo'ldi, qaysikim aholida detallarga bulingach, old, ort bo'lak va eng shakllari aniqlanadi. Hajm vitochkalar orqali hosil qilinardi. Bel esa qirqimli edi.

XV asr 1-yarmida uzun va tor kiyimlar, osilib turuvchi englar, uchli tufllilar, ulkan bot kiyimlar moddada edi.

Ranglar gammasi - ochiq va tinik qizil, kuk, yashil.

Ilk O'RTA asrlar davri (XI - XII asrlar). erkaklar kostyumiga ritsarlar qurol - yarog'i shaklining ta'siri

ko'zatilardi. Blio - pastroq joylashgan kirkma bel bo'lib, ustki berk kiyim. Naramnik - yon tomonlari ochiq, bot uchun qirqimi gazlamaning to'rtburchak yoki ovalsimon gazlama bulagidir. Naramnik - mipartn gerbsimon belgilar bilan bezatiladi. XIII asrda syurko - yon tomonlari tiqilgan, chukur eng o'mizi kiyim bo'lib, kott - ko'ylak ustidan kiyilardi.

Kech O'RTA asrlar davri (XIV - XV asrlar) erkaklar kostyumi siluetlari,

yopishib turuvchi va etagi kengaygan engli, bezak belbog'li, oldindan tugmali iaxmalar belda tortilib turuvchi, kalta jaket bilan almashdi. Ushbu kurtka uzun tumshuqli (70 sm) "pigash" nomli poyafzal bilan kiyiladi. Poyafzal rangi kiyimlar rangiga mos tanlanadi.

Syurko o'rnini upedyand-belbog'li va belbog'siz, engi keng (3 m), etagi (eni 3 m) va uzunligi keng, qadalmaydigan qoplama kiyim bilan almashdi. Boshga esa kapyushon-shaperon uchlarini osilib turuvchi drapirovkali bot kiyim. Soch turmagi uzun gajakli va chelkali.

Ayollar kostyumi. Ilk o'rta asrlar davrida ayollar asosan ikkita tunikani ustma - ust kiyishardi. Unda ostki tunika keng, uzun, engi tor bo'lsa, ustki tunika etagi kalta, engi keng va kaltarok edi. O'z vaktida ko'krakni kisib turuvchi kalta jilet, blio, plao` - mantiya paydo bo'ldi. Bosh yopinchoqlari yukolib, uringa soch yoyib yoki o'rib qo'yilardi. Oyoq kiyim erkaklar poyafzaliga o'xshash.

Kech o'rta asrlar davrida xayrlashayotgan gotika arxitekturasining ta'siri kostyum cho'ziq proporsiyasida kuzatiladi. Siluetlar - yopishib turuvchi va trapetsiya.

Nazorat savollari

1. Ayollar va erkaklar kostyumlari orasidagi farq?
2. O'sha davrda soch qanaqa turmaklangan?
3. Rang gammasini sanang?

Tayanch iboralari :

Old, o'rta bo'lak, ugli tufli, syurko, gotika, naramnik.

Ma`ruza 5.

Mavzu: Rus xalqining kostyumq

Reja:

1. Rus xalqining kostyumi.
2. Rus xalqi kostyumining boshqa xalqlar kostyumidan farqi.
3. Ruslar tashqi ko'rinishi
4. erkaklar kostyumi
5. Ayollar kostyumi
6. Gazlama, rang, naqsh.
7. Ustki kiyim

Adabiyotlar :

1. Н.М. Каминская История костюма М., 1986.
2. Л. Орлов Азбука моды. М. 1989.
3. G.K. Xasanboeva, V.A. CHursina. «Kostyum tarixi»T., 2004.
4. С. Ханус «Как шить?»

Ruslarning tashqi ko'rinishi, buy - basti, kaddi-komati, terisining okligi, yuzidagi qizillik, oltin rang sochlari evropaliklar va osiyoliklarni zavklantirardi. Ruslar kostyumi - to'g'ri yoki engi kengaytirilgan bo'lib, unda simmetrik, asimmertik kompozitsiyada esa bosiqlik, oltin va kumush effektli naqshli gazlamalar va turli xil rangli gazlama, mo'yna, kashtalardan boga kiyim foydalanish ko'zatiladi.

Gazlama, rang, naqsh. Turli sifatli zigir va jun matolardan, chetdan keltiriladigan shoyi va atlaslardan buyoq va marvariddan kashta tikiga bilan kiyimlar tikishardi.

O'rmon xayvonlari mo'ynasidan, iqlimga ko'ra, foydalanishardi.

Erkaklar kostyumi knevcha kaftan, svita, drapirovkali kiyim, ya'ni plash-korzis misol buladi. SHlapkalar gardishi va quloqchini mo'ynali. Ichki kiyim bo'lib, rubaxa va porti hisoblangan. Rubaxa bir necha bo'lak gazlamadan (gazlama eni h 30 - 60 sm), engi esa ulok-lastovitsa ulanishi bilan tiqiladi. Porti keng bo'lmasdan. Pastga tomon toraygan, uzunligina bo'lib, yoki onuch, ya'ni ustidan lapti kiyiladigan, oyoqqa o'ralgan gazlama bo'lagiga kiritiladi.

Ayollar kostyumidagi rubaxa uzun bo'lib, uning yoqa o'mizi va eng uchlari kashta yoki rangli sidirg'a mato bilan bezatiladi. Rubaxa ustidan poneva - belbog'da maxkamlangan, uchta tiqilmagan gazlama bo'laklaridan iborat yubka kiyilardi.

Ustki kiyim bo'lib, zapova rubaxadan kaltaroq bo'lib, yonlari tiqilmagan naramnikga o'xshash qoplama kiyim hisoblanadi. U belbog' bilan kiyilib pastda maxkamlanardi. Ko'krak yopqich - nagrudnik kalta keng engli, yoqa o'mizi, eng uchlari bezatilgan, rubaxa ustidan kiyiladigan kiyimdir.

Nazorat savollari

1. Rus xalqi kostyumini tikishda qanday gazlamalardan foydalaniladi?
2. Ustki kiyim deganda nimalar tushiniladi.
3. Ichki kiyim tushinchasi?

Tayanch iboralari :

Simmetrik, assimetrik, kaftan, svita, drabirovka.

Ma`ruza 6

Mavzu: O`rta Osiyo xalqlarining milliy kiyimi

Reja:

1. O`rta Osiyoda kiyiladigan kiyimlar.
2. O`rta Osiyo xalqlarni kiyimining boshqa xalqlar kiyimiga o`xshashligi.
3. Qozog`iston xalqlari kiyimlari
4. Qaraqalpoq yoshlari kiyimi.
5. Tojik xalqlari kiyimi.
6. Qirg`iziston xalqlari kiyim boshlarim
7. O`rta Osiyo xalqlari kiyimining boshqa xalqlar kiyimidan farqi.

Adabiyotlar:

1. Р.Г. Мукминова Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в ХUI веке Т. 1976.
2. Н. П. Лобачова, М.Б. Сазанова Традиционная одежда народов Средней Азии Казахстан М.1989.
3. А. Madraimov, N. Normatov. Sharq miniatyuralari teatri Т.1989.
4. А. О. Шухарева История Средазиятского костюма .
5. G.K. Xasanboeva, V.A. Chursina. «Kostyum tarixi»

XIX - XX asr O`rta Osiyo mintaqasida ulkan siyosiy va ijtimoiy o`zgarishlar davri bo`lib, uning ta`siri an`anaviy kiyimda ham seziladi. Bu paytda Rossiyaning O`rta Osiyo Qozog`istonga ta`siri kuchayib, ular o`rtasida savdo muomalasini rivojlanishi bilan Rossiyadan keltiriladigan gazlama assortimentining kengayishi bilan ulardan tayyorlanadigan kiyimlar bichimi, eni (mato eni kengaydi), bezaklari, ranglar o`zgardi.

XX arsda tikuv mashinasining keng tarqalgani tufayli, tikuvchi ishini engillashtirib, ular imkoniyatini ancha kengaytirdi. Bu davrda "evropa" kiyim bichimi kirib kelishi bilan O`rta Osiyo xalqlarining an`anaviy kiyimi qadimiy ko`rinishidan bir muncha o`zgarsada ularda urfiy elementlar saklab kolingandi.

O`rta Osiyo va Qozog`iston xalqlari milliy kiyimlarida ular iqlimi, etnosiga ko`ra farq bilan birgalikda, ular birlashtiruvchi, deyarli bir xil bichimi ko`zatiladi. XX asrga qadar ushbu xalqlar tunikasimon-elkadan oshiriladigan, bot uchun qirqimga ega kiyim kiyishardi. Bunday uxtatlik bot, belbog`li va oyoq kiyimda ham uchraydi.

Uxshatlik tarzi barcha xalqlarda uchraydigan yo`l - yo`l matoli kiyimlarda namoyon bo`lsada, ulardagi ranglar o`zaro farq qilar edi. Oq rangdagi kiyim, asosan erkaklardagi kalta ko`ylak - rubaxa barcha xalqlarda uchraydi. Ulardagi umumiy uchraydigan krestsimon qisib chiqarilib, uy jihozlariga ko`chdi.

Maishiy xayotga kiyimlarni bichib tikish, ya`ni elkasi qirqimli, engning

ovalsimon o'mizi, old va orka qismli kiyimlarning tarqali avvalo Rossiyaga chegaradosh Qozog'iston va Qirg'izistonda bo'lib, so'ng ular atrofiga (kamzol - misol) tarqaldi.

Qaraqalpoq yoshlarning ardoqli rangi ko'k bo'lsa, o'zbek va tojiklarda qizil ranglar hisoblanadi.

Bosh kiyim etnik xususiyatga ega bo'lib, u nafaqat xalqlar, balki undagi ma'lum bo'laklarda farqqa ega edi. SHunday bo'lsada, barcha xalqlarda salla, ro'mol ko'rinishidagi umumiy bosh kiyim uchrasada, ularning o'lchamlari o'zaro farq qilar edi. Sallasimon bot kiyim (uzunligi 3 - 11 m bo'lgan, toyi va paxtalik mato) qadimdan butun SHarq davlatlari-Xindistondan Misrga qadar tarqalgandi. Xorazm bosh kiyimi va SHimoliy Xindiston bosh kiyimidagi o'xshashlik ularning Xindistondan kelib chiqqanligi xakidagi fikrni ilgari surdi. Salla turk ayollariga ham mansub. YOzda salla do'ppi, qishda esa telpak ustidan o'raladi. Oq rangli salla oliy tabaqaga tegishli erkaklarga mansub bo'lsa, o'rta tabaqadagilar yashil, sarg'ish rangli salla o'rashardi.

Farg'onaliklar fikriga ko'ra, salla o'ralgan kishidan kat'iy tartib, namunali xulq - atvor talab etilardi. SHundan bo'lsa kerak, bu mintaqada sallani o'rash cheklangan edi.

Ustki kiyim bo'lib, to'n - joma, kamzol, chakmon, yaxtak hisoblanardi.

Keyinchalik umumiy do'ppisimon bot kiyimlar tarqalishi rivojlandi. Turmush ko'rgan ayol va erkaklar do'ppi kiyishar edi.

Doimo mulokotda bo'lib kelgan o'rta Osiyo xalqlarining kiyimlari o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, o'xshash tomonlarga ham ega.

Nazorat savollari

1. O'rta Osiyo kostyumlarning asosiy tuzilishi va turi?
2. O'rta Osiyo davrdagi kostyumlarning gazlamasi rangi haqida?
3. Har bir qadimiy davrning umumiy tavsifi?

Tayanch iboralar :

Belbog', dupki, rubaxa, o'miz, tuk, joma, chakmon.

Ma`ruza 7.

Mavzu: O'zbek xalqining milliy kiyimi

Reja:

1. O'zbek xalqining milliy kiyimi
2. eskicha milliy ko'ylak
3. Lozim
4. Milliy ustki kiyimlar
5. Bot kiyimlar
6. YOqali kiyimlar
7. An'anaviy kiyim boshlar

Adabiyotlar :

1. Р.Г. Мукминова Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в ХUI веке Т. 1976.
2. Н. П. Лобачова, М.Б. Сазанова Традиционная одежда народов Средней Азии Казахстан М.1989.
3. А. Madraimov, N. Normatov. Sharq miniatyuralari teatri Т.1989.
4. А. О. Шухарева История Средазиятского костюма .
5. G.K. Xasanboeva, V.A. Chursina. «Kostyum tarixi»
6. X. Ismoilov «An'anaviy O'zbek kiyimlari».

XX asrda tunikasimon kiyim ancha o'zgarishlarga uchrasada, uning asosiy printsiplari - mato tonda ip bo'lib, ikkita buklanadi (elka qirqimisiz) va bosh uchun yoqa o'mizi qirqladi. Bu davrga kelib, ulok - lastovitsa yoqa paydo bo'lib, Qashqadaryo xalqi va arablar kuylagida uchraydi. Ko'ylak etagi ochiq rangdagi, tor enli gazlama (30 - 40 sm) va yoniga ulanadigan klinkalardan iborat edi. Keyinchalik kiyim detallari burchak ostida qirqla boshlandi.

O'zbek xalqining ilk yoqasi - tik yoqa bo'lib, yoqa o'miziga ensiz, to'g'ri to'rtburchak gazlama bulagi ulanadi. Bunday yoqalar hozirda ham xalatsimon kiyimlarda uchraydi. Bunday tik yoqa - rubaxalarda uchraydigan, ko'krakkacha ulanadigan plankasimon yoqaga taklid edi.

YOqali kiyimlar bilan birgalikda, yoqasiz burchak qirqimli xalat va ko'ylaklar ham hozirda uchraydi.

Kiyim uzunligi tizzadan yuqori bo'lib, ular ostidan keng ishton - lozim kiyilib, ularning pochalari etikka tikib kuyilardi.

Ustki kiyim yon qirqimlarga ega bo'lib, ularning yoqa atroflari, eng va etak uchlari avralik gazlamadan rangi farqlanuvchi gazlama tasmasi bilan bezatilardi.

Ma'lumki, diniy marosimlarda kiyiladigan kiyimlarda qadimiy konstruksiya va bezak usullaridan foydaniladi. Masalan, mullocha - ko'ylak, musulmon ko'ylak oq rangdagi tunikasimon, gorizontall yoqa o'mizli ko'ylak bo'lib, barcha yoshdagilar kiyishardi.

Oliy tabaqaga tegishli kishilar choponlari qimmatbaho zar ip va tosh, marvaridlar bezatilar edi.

Qadimda erkaklar uchun ham ayollar uchun ham maxsus ichki kiyimlar bo'lmagan. Ichki kiyim sifatida yupqaroq ko'ylak va lozimlar ishlatilgan. Natijada ikki, uch yoki undan ham ortik ko'ylaklar ustma - ust kiyilgan. Uzun ko'ylak kiyish butun musulmon xotin - qizlariga xos xususiyatdir. Xotin-qizlar ko'ylaklari ularning yoshlariga qarab turlicha bo'lgan. Xotin - qizlarning eng ommaviy ko'ylaklaridan biri "elka yoqali" yoki "kiftaki" deb atalgan ko'ylakdir. Bu xildagi ko'ylakni ko'proq kariyalar, qizlar ham kiyishgan. Qizlar turmushga chiqquncha ana shu ko'ylaklarda yurishgan. Qadimgi odatga ko'ra, qizlarga turmushga chiqqanlarida nikox kunlari ok rangli "ko'rtai peshkusho" deyiladigan ko'ylak kiydirilgan. Bunday ko'ylakni kiyganda, u baxtli va xayotda hamma ishlari uchun "oldi ochiq" deb ishonishgan. Bunday ko'ylakning orka yoqa qirqimiga "paskafo" nomli detal tiqilgani uchun yoqasi tik turgan. Asrmizning 30 - 40 yillariga kelib bu ko'ylakni faqat ma`rakalarda, xayit kunlarida kiyiladigan bo'ldi. Uni qimmatbaho baxmal, parcha, pombarxt kabi gazlamalardan tikib, tagidan yupqa ok ko'ylakcha kiyib uzun englarini ustki ko'ylakning engi ustidan qayirib qo'yilgan. Kundalik kiyim sifatida uni faqat qariyalar kiyishgan.

XIX asr kiyimlarini o'rgangan tadqiqotchi olimlarning fikricha, hamma kiyaklar: ayollar, bolalar* va erkaklar ko'ylaklari bir xilda bichilgan va tiqilgan. erkaklar, bolalar va yosh qizlar kuylagining yoqasi gorizontal kirqilgan, ayollar kuylagining yoqa o'mizi esa vertikal kirqilgan. YOqa o'mizini adip bilan ishlab, ingichka ze tiqilgan, qizlar va ayollar kuylagining yoqa o'mizini "jonona", "qush jonona" nomli qo'lda barmoqlarda to'qilgan jiyaklar bilan bezab tiqilgan.

Eskicha ko'ylak milliy ko'ylak sifatida hozir ham ishlatiladi, uni san`atkorlar, kelinlar, otinoyilar, qari momolar kiyadilar. Ayniqsa bu xildagi ko'ylakni namozxonlar kiyadilar. Marosimda kiyiladigan ko'ylaklarning oldi to etagigacha va englarining uchi kashta naqshlari bilan bezatilgan, ba`zan" peshi ko'rta" va " nugi ostin" detallari aloxida tiqilib, har xil ko'ylaklarga taqilgan Ko'ylaklarning eng ostidan yupqa ok yoki okish rangda ko'ylakcha kiyilgan. Bu ko'ylakchaning engi 80 sm gacha bo'lib yoqasiga par-par tiqilgan yoki engi bilan bir xil kashtalar tiqilib bezatilgan, eng uchiga arabcha so'zlar yozib tiqilgan. Ostki ko'ylakchaning o'zunligini har xil bo'lib ba`zan belgacha yoki undan o'zunrok bo'lgan. Bunday ko'ylak ich ko'ylak bo'lib, doimo almashtirilib turilgan. Buxorocho ko'ylaklar uchun har xil gazlamalar tanlangan. Oddiy surpdan tortib, eng qimmatbaho va sejilo kundal, farang (ipak mato, xonatlas, banoras, adras, takir baxmal va boshqalar).

Lozim

O'rta Osiyo xalqlari milliy kiyimning eng zarur va asosiy qismi lozimdir. Lozim turli nomlar bilan atalgan: -ezor, ilbas, poyjoma, dambal, ishton.

Poyjoma - tojikcha so'z bo'lib, oyoqlarga kiyimladigan buyum, joma.

Lozim - kiyilishi shart ma`nolarini bildiradi.

Davrlar o'tishi bilan ayollar va erkaklar lozimi o'rtasida farq ham o'zgargan, erkaklar kiyadigan ishtonlar keng, uzun, xio`tagi to'rtburchak yoki uchburchak

bo'lib, xishtak o'rtasi ancha osilib turgan. Sababi ot, eshak, tuya kabi xayvonlardan foydalanishgan shuning uchun ham kiyiladigan kiyim kengroq bo'lishi kerak.

O'tmishda xotin - qizlar lozimi ikki, uch xil matodan tiqilgan. Uning o'ziga xos sababi usha davrda hamma xotin-qizlarning kiyim - kechak uchun yangi mato sotib olishga kurbi etmagan. SHuning uchun lozimning ko'zga tashlanadigan qismi, ya'ni pocha qismi yangi matodan, nefa qismi esa arzon yoki eski matodan tiqilgan.

Qadimiy udumga ko'ra qizlar xali turmashga chiqmaganlar xech qachon erga tekkan ayollarning lozimlarini kiyigts man qilingan. Qadimiy lozimning yana bir diqqatga sazovor qismi uning bog'ichidir.

"Ezorband" yoki ishtonbog maxsus dastgoxda oq patta iplardan, rangli iplardan yo marosim lozimlari uchun ipak iplardan naqshinkor qilib to'qilgan, uchlari popuklar bilan tugab, ba'zan bir necha sharchalar shaklida tugib kuyilgan. Kelin-kuyovlar lozimga bog'ich o'tkazganda mevali daraxt shoxchasidan foydalanganlar.

Lozim hozirda ham ayollarning zarur milliy kiyimidir. Hozir kiyiladigan lozim qadimiy lozimga xshasada, ancha takomillashib kengligi va uzunligi eng optimal variantga kelgan. Albatta maxsus bogich urnida hozirda rezinkadan foydalaniladi, bezak urnida kulda tiqilgan nafis iroki jiyaklardan foydalaniladi. Pocha uchini jiyak tiqilgan joyi popuk taqib bezatiladi. Buxoroda jiyaksiz lozim kiyish ayollarning uncha orasta emasligidan darak beradi.

MILLIY USTKI KIYIMLAR

An'anaviy kiyim - kechaklar kishlik va yozlik qilib tiqilgan. YOzlik kiyimlar asosan bir kavat, astarsiz va paxtasiz, qishki kiyimlar esa astarli va paxtali bo'lgan.

O'tmishda erkaklar uchun maxsus ichki kiyim tiqilmagan. Kuz va qish fasllarida erkaklar yozgi kiyimlari usgidan qalinroq matodan tiqilgan to'n, chakmon, po'stin kabi kiyimlarni kiyganlar.

Erkaklar kiyimning yana bir nusxasi guppidir. Guppi asosan ikki nusxada tarqalgan, birinchisi uzun va keng bo'lib, kiidi badanini o'rab turgan, ikkinchisi esa, uzunligi tizzasidan balandroq bo'lib, yonidan bog'ich bilan bog'langan.

To'n juda qadimiy kiyim hisoblanadi. CHopon esa aksar paxtali ma'noda yuritilgan. Paxta to'n ustidan avra to'n kiyigigan. Sababi, to'nlr qalin, ularni tez kir qilmaslikdir. YAna bir sababi, bu xilda to'n kiidiga salobat, ko'rk baxsh etgan.

An'anaviy o'zbek kiyimlarining yana biri chakmondur. CHakmonlarning bakoti, bosma, kokma, tivitli, silkma kabi Xilari bo'lgan. Ular asosan astarsiz faqat avradan iborat bo'lib, shakli to'nga uxshagan. CHakmon yoqasiga, eng uchlari va etaklariga qora, kukigts, pushti va jigarrang matolardan jiyak tiqilgan, adib kuyilgan. CHakmon uzun va keng tiqilib, to'n ustidan kiyilgan, belbog' bog'lanmagan. CHakmonning chiroyli ko'rinishi uchun ularning eng uchlari, yoqalari, etaklariga turli rangdagi ipaklardan to'qilgan ingichka jiyaklar qadalgan.

Po'stin ham qadimiy kiyim hisoblanadi. U kuy, tulki, suvsar va boshqa xayvonlar tesidan tiqilgan. Aksariyat po'stinlarning ichi xayvon mo'ynasidan ustki qismi esa bo'yalgan teridan iborat bo'lgan. Po'stin termini fors - tojik eroniy tiliga

mansubdir. Po'stinlar turli xil bo'lgan: barra po'stin, suvsar po'stin va xokazo. Po'stin keng va uzun qilib tiqilgan. Sovuq vaqtlarda to'n, chamon ustidan kiyilgan. Po'stin qattiq sovuqda ochiq xavoda ishlash va yo'lga chiqqanda kiyish uchun moslangan.

Ustki kiyimlardan yana biri qadimiy va keng tarqalgani kaltacha yoki mursak nomi bilan mashhur bo'lgan. Kaltacha xalatdan farqi yoqasi va qulfaklarning yo'qligi va "chucha" detali borligidir. Kaltachaning oldi katta va ochiq bo'lib, ostidan kiyilgan ko'ylaklarning yoqasi va taqinchoqlar ko'rinib turgan. Kaltacha uch qismdan iborat: bo'y, yon tires va englardan borat. Tires qismi to'g'ri, uzun bo'lib, kultik ostiga tuplangan va ipak rangli iplar bilan chatib tikib kuyiladi. SHu qism burmali joyni "chucha" deyiladi. Mursaklar kishlik va yozlik qilib tiqilgan. Qishligiga yupqa paxta solingan. kaltacha xotin - qizlarning tuy, tantana va boshqa marosimda, taziyalarda ham kiyilgan. Kaltacha kundalik kiyim sanalgan.

Kaltacha ya'ni mursak arabcha nom bo'lib, "Murassa" so'zidan olingan. Mursak arablarning qadimiy ustki kiyimlari turidan bo'lib, qimmatbaho tot va zarlar bilan bezatilgan. SHuning uchun ham arablar bu kiyimga murassa ya'ni ziynatlangan, bezatilgan deb nom berilgan. Arabcha murassa` termini o'zbek tilining ichki fanetik va shevaviy xususiyatlariga muvoffiq mursay, mursak va misak tarzida talaffo'z qilingan.

Kaltacha birinchi marta qiz bolalarga 12 yoshdan ya'ni muchal yoshida maxsus marosim "kaltacha pushon" utkazilib kiydirilgan. Kelinlikda ham kaltachani kiyim u to bola tug'ilguncha yopinib yurilgan. Kelin bitta bolali bo'lgach, yana marosim o'tkazilib, kaltacha yopinish to'xtagan. Bunday marosimni "sallabandon" deb yuritilgan va uni kelinning onasi o'z uyida utkazgan. Munisakni alocha, banoras, baxmal, taqir baxmal kabi matolardan tiqilgan.

Qadimda Buxoro ayollari ishtirokida o'tkazilgan "xinobandon", "sallabandon", "gavorabandon", "miyonbandon", "oshibibiyon" va boshqa juda kup ma`rakalarda ayollarning har biri va mavkei va boyligiga ko'ra uch martadan etti martagacha kiyimni o'zgartirgan. Ko'ylaklar bir necha kavat bo'lib, uchtadan to'qqiztagacha ustma - ust kiyilgan va kaytarib qo'yilgan englar ularning qanday gazlamadan ekanligini va sonini ko'rsatgan. Mursak shartli kiyim sifatida kelinlar sepiga qo'shib berilgan. Ta`ziya marosimida kiyiladigan mursak yo kaltacha "peshvo" ya'ni oldi ochiq deb atalgan. Uni ulgan odamning eng yaqin qarindoshlari kiyishgan va bunday kiyinish vafot etgan kishiga nisbatan katta xurmat ramzi hisoblangan.

SHunday qilib XIX asr oxirida O'rta Osiyoda bichiladigan kiyilarning boshqacha bichimi keng rasm bo'la boshladi va bunday kiyimni "Rumcha" deb ataladigan bo'ldi. Bunday kiyimlarning asosiysi kamzul va nimchadir. Agar an'anaviy kiyimlarni bichganda gazlamani kulda yirtish etarli bo'lsa, bunday kiyimlarni bichish uchun albatta kaychi va tikuv mashinasi zarur bo'lib qoldi. Kamzul yoki "bishmant", "bishlit" O'rta Osiyoda keng tarqala boshladi. Qirg'iz, Qozoq ayollarining milliy libosi tartibiga kat'iy kirdi. Xatto engsiz kamzulni "kozoki" yoki "qozoqin" deb ataldi. Rumcha chopon, kaytama chopon an'anaviy to'ndan kamzulga o'tishi o'rtasida paydo bo'lgan. Uning orasida chok engi bo'lgan. Kamzulni avval millatning eng ziyoli, faol va obro'li savdogarlar, shoir erkaklar

kiygan. Kamzul albatta tik yoqali bo'lib, yaktak ustidan kiyilgan. SHunday qilib erkaklar uchun mustaqil ustki kiyim bo'lmagan. Ayollarda esa, aksincha, kamzulni ustki kiyim sifatida hozir ham kiyishadi. Kirkma chuntak birinchi marta kamzulda ishlatilgan va uni "daxanimoxi" ya'ni balik og'zi" deb atalgan keyinchalik kamzullarning yoqasi ham o'zgarib borgan. Tik yoqa o'rnini qaytimli yoqalar bilan o'zgartirgan. Tomoqning tagigacha tugmali kamzul kulfi kalit yoqa deb atalgan.

Kamzul astarli, yarim astarli, astarsiz bo'lgan. XX asr boshiga kelib kamzul: xalat, munisak kabi kiyimlarni butunlay siqib chiqarib, yagona ustki kiyim bo'lib kolgan. Avval kamzulning beli juda tor, etagi esa keng, tarpetsiyasimon bichilgan. Keyinchalik esa bu chiziklar to'g'rilana borib, beli kengroq tiqilgan. SHunisi qiziqqi, kamzul xox oddiy, xox bashang bo'lsin, xox astarli, xox astarsiz bulsin undan farovez detali bo'lmagan, bu esa uning yangicha kiyim ekanligini xalat va munisakdan tubdan farq qilishini kursatadi. Kamzul tikish uchun o'sha vaqtdan yangi chiqqan baxmal, barxat asosiy gazlama hisoblangan.

XX asr boshida engsiz kamzul, kamzuldan kaltarok engsiz kamzulcha, "nimcha" ya'ni (yarimta) paydo bo'lgan uni ham astarsiz, astarli, paxtali qilib tiqilgan. Nimchaning shakli ham bora takomillashgan kiska va belga maxkam yopishadigan bo'lib olgan va milliy kiyimning asosiy bir turiga aylangan.

BOSH KIIYIMLAR

O'zbek xotin - qizlari kiyim-kechaklaridagi o'ziga xoslik ayniksa ularning bot kiyimlarida yakkol ko'zga tashlangan. Boga kiyim deganda, eng avvalo, do'ppi ko'zga tutiladi. Ammo xotin - qizlarning hammasi ham do'ppi kiyavermagan. Do'ppini asosan turmushga chikmagan yosh qizlar, ayrim hollardagi yosh kelin va xotinlar kiyishgan. Fargona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi joylarda do'ppi kiyish an'anaviy hisoblangan. Bu yasoylarda xotin-qizlar do'ppilari turlicha nomlangan va turlicha nusxalarda tiqilgan. SHaxrisabz va Kitob do'ppilari juda mashxur bo'lgan.

Xotin - qizlar do'ppilari tepa, kizak, jiyak kabi qismlardan iborat bo'lib, ular aloxida - aloxida tiqilib, so'ng bir - birlari bilan kushib yaxlit holatga keltiriladi. Ayrim do'ppilar to'rtburchak, boshqalar dumalok shaklida buladi. Sanami, iroki, gilam, nusxa, nozik do'ppi kabi do'ppilar respublikamizning hamma joylarida kiyilgan.

Qishloq yayuyilarida tiqilgan do'ppilar kimga muljallangani bilan bir - biridan farq qilgan va turli nomlar bilan yuritilgan. CHunonchi, kiz do'ppisi, kelin do'ppisi kabi. Bunday do'ppilar dumalok, popukli bo'lib, usti qizil yoki tuk - qizil matodan tiqilgan. Jiyakning pastki tomonidan zich qilib ok sadaf tugmalar kadalgan.

Ko'proq o'rta va katta yoshdagi ayollar kiyimining boshga kiyiladigan yayuyi dumalok, orkasiga tushib turadigan soch kopi bo'lgan. Ayrim yasoylarda bu bosh kiyimiga ozrik paxta ham solingan.

Qizlar kiyadigan bosh kiyimlardan yana biri "kasava" deb atalib, u kattik karton yoki bir necha xil matodan chambarak shaklida tayyorlangan va o'rta qismi ochiq koldirilgan. Xotin-qizlarning "Lachak" degan bosh kiyimning orka tomoni kishining beliga tushgan, old qismi iyakka takalib turgan. Kishining yuz - ko'zi

uchun maxsus teshigi bo'lgan.

Xotin - qizlarning harakterli bosh kiyimlaridan yana biri bosh yoki salla deb ataladi. Mazkur bosh kiyimni odatda bolali ayollar kiyishgan. Ayollar boshlariga avval boshlariga yarim do'ppi shaklida kiygichni kiyib, uning ustidan besh - etti metrlik salla o'rashgan. Xuddi shu qismi bosh deb atalib, uning ustidan esa o'z uylarida ettitadan tukkiztagacha, tukkiztadan un birtagacha turli rangdagi va nomdagi matolardan tayyorlangan uch burchakli yoki to'rt burchakli kiyik ro'mollarni hammasining rangi aniq kurinadigan qilib o'rashgan.

Bu bosh kiyimlarning eng katta va eng balandi chambarshoxbosh deb atalgan. Bosh yoki salla orasi, ustki qismi ochiq koldirilgan, unga nina, kalit, pul, ro'molcha, gugurt, kurut, tuxum kabi narsalar solingan.

O'tmishda xotin - qizlar turli tuman ro'mollar o'rashgan. Ular qanday matodan qilinganligiga qarab turlicha atalgan. Xususan, dudok ro'mol, ip ro'mol, tol ro'mol, doka ro'mol, mikol doka ro'mol, g'ijim ro'mol qabilar.

Xogin-qizlarda kundalik o'rash uchun durra, durracha, peshonaband, manglaycha, loki kabi boshqa uraladigan ro'molar ham bo'lgan.

Kariyalar aytishicha, keksalar boshlaridan durra tushib ketmasligi uchun uning ustidan buklab bog'laydigan ro'mol loki deb atalgan.

Bu Buxoro va Samarqand viloyat xotin-qizlari orasida peshonaband nomi bilan, Toshkentda ilgari loki deb, keyinchalik esa peshonaband deb yuritiladi.

Qadimiy a'anaga ko'ra, tuy kuni kelinlar boshiga ok ipakli matodan tiqilgan kadpo nomli katta yopinchik ro'mol solingan. Buning ham hajmi bo'i ikki metr, eniga bir metr bo'lgan. Buni kelinlar bolalik bulgunlaricha yopinib yurigagan.

Ustki va bot kiyimlar, to'ningdek yopinchiklar kabi xotin qizlarning soch urishlari, sochni parvarish qilishlari ham ularning ushiga, oilaviy axvoliga qarab o'zgarib borgan. Avvalo shuni aytish kerakki, sochni o'stirish, uni parvarishlar, maydalab yoki ikkita qilib urish o'zbek xotin-qizlarining qadimiy an'analaridan sanaladi.

SHu narsa harakterliki, Qashkadaryo, Surxandaryo viloyatlarida yosh kelinlarning qizlik soch o'rishini ayollik soch urishga aylantirish marosimi soch tui, boga tui kabi nomlar yuilan atalib, tu kuni kelin tushgan xonadonga kuni-ko'shnilar qarindosh - urug' yig'ilishgan, ularga osh-non berilgan.

Nazorat savollari

1. O'zbek xalqini ilk ekasi?
2. eskicha milliy ko'ylak tushunchasiga tavsiv bering?
3. Lozim kiyimning kaysi qismiga kiradi?
4. Milliy ustki kiyimlarga nimalar kiradi?
5. O'tmishda bot kiyimdan nima maksadlarda foydalanilgan?

Tayanch ibolari

Ichki kiyim, yoqa o'mizi, «peshi ko'rta», «nugi ostin», poyjoma, dambal, «ezorband», jiyak.

Ma`ruza 8

Mavzu: XIX-XX Asrning birinchi yarmidagi o'zbek kostyumi

Reja:

1. O'zbek xotin - qizlar kuylagi
2. O'zbekcha ko'ylakni turli viloyatlardagi ko'rinishi.
3. Buxorocha milliy ko'ylak
4. Erkaklar kostyumi
5. Oliy tabakadagilar kiyimi
6. Bolalar kiyimi
7. Zamona viylashtirilgan kiyim boshlar.

Adabiyotlar :

1. Р.Г. Мукминова Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в ХUII веке Т. 1976.
2. Н. П. Лобачова, М Б. Сазанова Традиционная одежда народов Средней Азии Казахстан М.1989.
3. А. Madraimov, N. Normatov. Sharq miniatyuralari teatri Т.1989.
4. А. О. Шухарева История Средазиатского костюма .
5. G.K. Xasanboeva, V.A. Chursina. «Kostyum tarixi»

Xotin - qizlarning ko'proq burma kuylagi asrimizning boshlarida Farg'ona keyinchalik Toshkentda paydo bo'lgan. Qishloq xududlarida va qo'shni viloyatlarda esa 30 -yillardan boshlab tarqalgan. O'zbekcha ko'ylak o'zining zeboligi va sipo qilib tiqiliidi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunda ko'ylakning buyi (kaketskadan pastki qismi) to'g'ri enlardan tiqilganligi uchun gazlamaning gullari ko'ylakda butunligicha saklanadi va ko'ylak chiroyli chikadi. Ko'proq burmali to'g'ri ko'ylak to'la gavnali xotin-qizlarga ham nozik gavnali xotin - qizlarga ham yarashadi. Hozirgi kunga kelib, ko'proq burma ko'ylaklar nusxalarda jo'z'iy o'zgarishlar. yuz beradi. Ular qishloq va shahar aholisining sevimli va doimiy kiyimlari tarkibidan joy olib, uchburchak, yarim doira va boshqa nusxalarda bichiladigan bo'lib qoldi.

Ko'proq burma ko'ylaklar butun O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari shuningdek boshqa millat xotin - qizlari tomonidan ham sevib kiyilmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'zbekiston to'qimachilik san'ati va dekorativ amaliy san'ati ham keng rivojlangan edi. An'anaviy o'zbek shoyilari (*kaunas, shoyi, xonatlas*), nimshoyilar (*bekasam, banoras, parpasha, adras*) Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ishlab chiqarilardi. O'rta Osiyo aslzodalari shu gazmollardan kiyim kiyishardi. Kambaral aholining kiyimi

asosan ip matolardan (*bo'z, olacha, susi, janda*) bulardi.

O'rta Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgandan keyin fabrikalarda ishlab chiqarilgan matolar (*chit, satin va boshk,alar*) keng tarqalgandi. Aslzodalar kiyimida Frantsiya va Rossiyada ishlab chiqarilgan naqshli shoyi gazmollar — *baxmallar, kimxoblar, kundalar, faran-gilar va atlaslar* ko'llanardi. Ulardan tashqari, jun matosi *movut* ham erkaklar ustki kiyimida kup ishlatilgan.

Ayollar kiyimi. Qadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimdan iborat edi. Ko'ylakning shakli to'g'ri, ba'zan etagi kengaygan bo'lib, uzunligi tupirigacha edi. Qizlar kuylagida yoqa o'mizi kundalang qilinib, chetlari boshqa rangdagi mato yoki tasma bilan tikib chiqilardi va o'sha matodan tayyorlangan tasma bilan bog'lanardi yoki bitta tugma bilan qadab qo'yilardi.



1-rasm.. 7-yon kiyikli ayollar kuylagi; 8-kaytarma yoqali kozomar kuylagi; 9-tik yoqali kozoklar kuylagi; 10-tunikasimon beli kirqilgan kozoklar kuylagi; 11- tik yoqali aellar kuylagi; 12- erkaklar ustki kiyimi

Turmushga chiqqan ayollar esa vertikal kesimli ko'ylaklarni kiyishardi. Kesim ko'ragini o'rtasidan uzunligi taxminan 25 sm qilinib, tasmalar bilan borlanar, bitta tugma yoki to'g'nag'ich bilan qadalardi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa o'mizining chetlari zarbob tasma "*peshko'rta*" va kashta bilan bezatilgan. YOqa o'mizi bu erlarda juda uzun (etagiga sal etmas edi) qilinardi. Ko'ylaklar juda keng bo'lgan, uning englari esa g'oyat keng va uzun bo'lib, kaftni berkitib turgan. Englari, ba'zan, boshqa qimmatbaho matodan qilinardi yoki kashta bilan bezatilardi. Ayollar kulini kuksiga kuyib yurishardi va shu bois engining go'zalligi to'liq ko'rinardi.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin tik yoqalar paydo bo'la boshladi. Ularni keyinchalik plissirovkalik "*par-para*" bilan bezatishadigan bo'ldi. Turkiston o'lkasida (avval shaharlarda, so'ngra qishloqlarda) odatda vertikal qirqimli qopqoq bilan berkitilgan yoqa o'mizi, baland *tik yoqa* kirib kela boshladi. Bu yoqani "*it yoqa*", "*nueoy yoqa*", zarafshon vodiysida "*kozoki yoqa*"

deb atashardi.

YOsh ayollar birinchi farzand turilganicha uchlari yuqoriga qaragan ko'pgina uchburchak ko'rinishda "*tishchalar*" yoki plissirovka par-para bilan bezalgan tik yoqali ko'ylaklarni kiyishgan. SHunday tik yoqa o'zbek va tojik ayollarning ko'ylaklari uchun xos edi.

XIX asrning oxirlarida qirqilgan koketkali ko'ylak — *ko'krakburma ko'ylak*. paydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishi natijasida kelib chikdi. Ko'ylak ser burmalangan gavda qismi, elkasi qiya bichilgan koketka, o'tkazma eng va yoqa qismlardan iborat edi. Ushbu ko'ylak keyinchalik ayollar garderobida barkaror urnashib, ayollar milliy kos-tyumining asosi bo'lib qoldi.

SHular katorida, tunikasimon bichimli, tik yoqali va englari manjetli ko'ylaklar ham keng tarqalgandi. Katta yoshdagi ayollar vertikal kesimli yoki plissirovkasiz tik yoqali ko'ylaklarni kiyishda davom etishgan.

SHu davrda uzun, uchi tor engli ko'ylaklarni kiyishgan, ularga tirsak va bilak orasida ingichka, kashtalangan tasmalar tikishgan. Ilgarilari bu tasma o'rtasida kesim kirqilib, undan ishlagan paytlarida qullarini chiqarib qo'yar edilar, eng uchini esa shimarib kuyishardi. Bunday ko'ylaklar asosan Xorazmda qayd etilgan. Hozirgi paytda kashtalangan tasma tiqilib, kesim qilinmaydi, u dekorativ bezagi bo'lib qolgan.

Uy ichida bitta va sovuk kunlarda ikkita ko'ylak kiyilardi. Bayram kunlari aholining taniqli, boy tabaqalaridan bo'lgan ayollar ustma-ust uchta ko'ylakni kiyishardi. Bunda uchala ko'ylakning englari bir xil kenglikda, lekin har xil uzunlikda bo'lib, birinma ketin biri ko'rinib turardi, eng uchlari esa kashta bilan tikib chiqilgandi. Agarda yana ham boyliklarini kursatmokchi bo'lsalar, o'zlari bilan bir necha ko'ylakni olib, mexmonga kelgandan so'ng, vaqti-vaqti bilan almashtirishar edilar. Buxoro va Samarqandda badavlat odamlar orasida ko'ylaklarning soni ettitagacha etardi. Kiyimning seroblighi bilan libosning egasi boyligini ko'rsatishni xoxlardi. Buni faqat yosh kelinlar to'ylaridan keyingi kunlarda kiyishar edilar.

Ba`zan, ustki ko'ylak ostidan ichki ko'ylak kiyishgan. Ular oq ip matodan qilinardi.

Ko'ylaklarning uzunligi turlicha bo'lgan. Keksa ayollar uzunligi ergacha etadigan, yoshlar — kaltaroq ko'ylaklarni kiyishardi.

Xorazmda qizlar va yosh ayollar ola chipor matodan tiqilgan ko'ylaklarni tikishardi.

Utgan asrning oxirida ayollar ko'ylaklari ola chipor chitlardan, o'ziga tuk oilalarda esa qizil shoyidan tiqilardi. Qirq yoshlardagi ayollar odmiroq, ya`ni ko'k, zangori, yashil, binafsha rangdagi ko'ylaklarni ma`kul ko'rishardi. Keksa ayollar maxalliy ishlab chiqarilgan ok ip gazlama — bo'z yoki yashil qora mayda holli va gulli chitdan tiqilgan ko'ylaklarni kiyishardi. Boy oilalarda kelinning nikoh, kuylagi mahalliy ishlab chiqilgan yoki Qo'qon, Buxorodan yoki O'rta Osiyoning boshqa shoyi tukuv markazlaridan keltirilgan shoyilardan tiqilardi. Ba`zan, mablari etishmagan oilalarda esa chopon ostidan ko'rinmaydigan ko'ylak bo'laklari boshqa, arzonroq mato, masalan, chitdan qilinardi.

Ayollar kostyumining ikkinchi asosiy qismi — **lozim**. Lozim beldan yuqori

qismida utkazilgan ishtonbor yordamida ushlab turiladi. Odatda lozimlarni ikki xil matodan: pastki qismini, ya'ni ko'ylakdan ko'rinadigan qismini, ancha qimmat va chiroyli matolardan, yuqori qismini esa (taxminan bo'lsa o'rtasidan beligacha qismini) arzonroq va oddiyroq matodan tiqilardi. Ishtonni uchi to'qilgan va kashta qilingan tor tasma "jiyak" bilan bezalgan, uning uchlari popukni hosil qilardi.

Lozimning uzunligi va kengligi turlicha bo'lgan. SHaharlarda, shahar atroflarida va qishloqlarda asosan uzun lozim kiyishardi.

O'rta Osiyo xalqlariga oid ayollarning ishton bichimi odatdagicha bo'lib, erkaklar ishton bichimiga o'xshash edi. Ishtonlar uzun, asosan, tupirigacha bo'lgan. Tepa qismi keng, pasti esa toraygan ishton poylarining orasiga OR tiqilardi. Katta romb, kvadrat va uchburchak shaklidagi kadam tashlaganda ishtonni kengaytirardi va yurishga hamda otga minib yurishga xalakit bermasdi.

Qizlar va yosh ayollar maxalliy ishlab chiqilgan ok yo'l-yo'l yoki gulli matodan, keksa ayollar — asosan oq matodan ishton kiyishardi. Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolar O'rta Osiyoga olib kelingandan keyin ular keng qo'llanadigan bo'ldi, chunki ular mahalliy matolardan arzonroq bo'lgan.



2-rasm. Ayollarning bosh yopinchoqlari: 1 - topli tojiklar ro'mol-ari, 2-boshiga ro'mol yopingan o'zbek ayoli; 3-beludj yopinchori, 4-Samarqand tojik kelinlarining turli yopinchorlari; 5-odtsiy choponni yopinchoq. sifatida kiyish; 6-yopinchoq peshvo yoki jegde; 7- chqrpq-turkman bosh yopinchori; 8-paranji; 9-ko'rta-bosh yopinchori (o'zbek-karluklar); 10,11 -paranjidan keyin Samarqand tojiklarining bosh yopinchori.

Ayollar ustki kiyimiga qavilgan paxtali choponlar kiradi. Ular erkaklar choponidan birmuncha farqlanib, tunikasimon bichimli edi. Ayollar choponlarining yoqa umizlari ochiq va keng bo'lgan, ular baxyalanmagan, adipi bir biriga kirmagandi. erkaklar choponiga Qaraganda englari birmuncha kaltarok va kengroq bo'lgan. Xorazmliklarning paxta choponlari o'ziga yarasha juda qiziqarli edi. Ko'lda qavish o'rniga, ular xiylagina mashinada qavishgan. Bilak qismida esa qo'l uchun kesim qilinib, ish qilayotgan paytda iflos bulmasligi va xalaqit bermasligi uchun

qadalib qo'yilardi.

Paxtali choponlardan tashqari yozda qishloq, asosan Zarafshon vodiysi ayollari, astarsiz chopon "*delegay*"-ni kiyishgan. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ustki kiyim sifatida engli, beliga sal yopishib turib, pastiga qarab kengaygan, astarli chopon "*rumcha*"ni kiyar edilar. Rumchani o'tkazma tor englarining uzunligi bilagigacha edi.

Ayollarning maxsus ustki kiyimi bo'lgan chopon "mursak" O'zbekistonda keng tarqalgandi. U Toshkentda — mursak, Samarqandda — munisak, kaltacha,


Farg'onada — munisak, munsak, Buxoro va SHaxrisabzda — kaltacha deb ataladi.

Mursak yoniga tiqiladigan kiyiklar yordamida kengayardi, yonlarida esa eng ostidan ser mayda burmalar, etagining yonlarida kesimlar qilinardi. Mursaklar astarli qilinib, qavilardi, qishki mursakka esa yupqa qatlam paxta quyilardi.

XIX asr ikkinchi yarmigacha Toshkentda oddiy choponga nisbatan mursak englari birmuncha kalta bo'lgan. Keyinchalik mursakning englari tirsakkacha qilingan, u "tirsak eng" deb atalib, uning ostidan ko'ylakning uzun englari chiqib turardi.

Samarqandda mursakning tor englari ko'lni kaftigacha etardi; Buxoro va Qashqadaryoda esa englari keng bo'lib, tirsakdan tushib turgan, uning ostidan esa ko'ylak englari chiqib turardi. Xorazmda oddiy chopondan mursak faqat eyagining shakli bilan farqlanardi (engi uchiga qarab toraygandi).

XIX asr mobaynida mursak odatdagi bashang kiyim bo'lgan; XX asr boshlarida uni belbog' bilan bog'lab, fanat dafn marosimlarida kiyishadigan bo'ldi. Ammo Samarqandda katta yoshli ayollar mursakni belbog'siz mehmonga yoki tuyga borganda kiyishgan. XX asr boshida Toshkentda mursak kiyilmagandi, biroq, u har bir oilada bo'lishi shart edi, chunki u bilan ayol ulganda tobuti ustini yopishardi.



3-rasm. Ayollarning oldi ochiq kiyimi: 1-yoqasiz chopon. XVIII asr. Samarqand; 2 -yoqali chopon. Buxoro; 3-yoqali chopon; 4-elkasining oldida kesigi bor ayollar choponi; 5-yoqali, yon kiyikli, qavilgan erkak choponi; 6-yoqali yon kiyikli chopon; 7-Pamir ayollarining juniy choponi; 8-ayollar choponi mursak; 9-turkmanlarning kalta, oldi ochiq choponi.

Rossiyadan O'rta Osiyoga kiyimning yangi turi — "*kamzol*" (*kamzur*, *kamzul*, *peshmet*) kirib kela boshladi. Bu beliga sal yopishib turgan, kalta va tor o'tkazma engli, kaytarma yoqali, yonlarida va kukragida chuntak qilingan ustki kiyim bo'lgan. Kupincha kamzollarni tovlanib turuvchi yo'l-yo'l bekasamdan yoki rangli duxoba, baxmal va boshqa matolardan tiqilardi.

SHu davrda kalta engsiz kiyim "*nimcha*" (Toshkentda) va "*kamzur*" (Farrona vodiya) paydo bo'lgandi. Uni kamzul ostidan yoki ko'ylak ustidan kiyishardi. Nimchani tuk, baxmal yoki duxobadan tikishardi, qizlarniki esa — qora satindan qilinib, etagida kashta tiqilardi. Nimcha milliy kostyumning zarur qismlaridan biri bo'ldi.

SHaharlik va boy qishloq, ayollari paranjini kiyishardi. U katta va keng chopon bo'lgan, uzun va tor sohta englari "*sochvok*," orkaga tashlanib, uchlari bir-biri bilan biriktirilgandi. Paranji ayolni jussasini boshidan tovonigacha berkitib turardi, yuzini to'g'ri to'rtburchakli ot qilidan to'qilgan "*chachvon*" ("*chibat*") bilan berkitishardi. CHachvonning chegaralari qora mato bilan tiqilardi, ba`zan u zanjir kashta bilan yoki mashinada tiqilgan naqsh bilan bezatilardi. CHachvonga esa ko'z tegmaslik maqsadida rangli ko'zmunchoqlarni tikib kuyishardi.

Paranji tarixi uzun va murakkabdir. Paranji so'zi "*faradji*" so'zidan kelib chiqqan. Fors tilidan tarjima qilganda "*faradji*" so'zi ko'ylak ma`nosini bildiradi. Faradji Misrda paydo bo'lib, SHark mamlakat-lariga tarqalgan. O'rta Osiyoda SHayboniylar davrida (XVI asr) faradjini olimlar kiyishgan. Xindistonda va O'rta Osiyoda Temuriy va Bobur davrlarida faradjini olimlar, aslzodalar, davlat amaldorlari va ruhoniylar kiyishgan. Faradji so'zi ham erkak, ham ayollar kiyimini anglatardi. U rta Osiyo paranjisining qadimgi timsoli bor. Feodal davrida vujudga kelgan bu boy kiyim yangi shakllar asosida o'zgarib turardi, ammo o'zining qadimgi negizini saklab kolgandi. SHunday qilib, O'rta Osiyo ayollar paranjisi qadimgi faradjidan kelib chikib, yopinchoq sifatida kiyilardi. XVI asrga kelib uzun va noqulay englari dekorativ detal bo'lib qoldi, XVIII asrda esa ular asosiy vazifasini yo'qotib, xakikiy englarga o'xshab bichilib va tiqilib, orkasida biriktirilib uzun dekorativ tasmaga aylandi.

Feodalizm so'nggi davrlarida paranjining kullanishi o'zgardi: u ayolni begona ko'zdan berkitishi shart edi.

CHachvon, *chibat* (*chashm band* — ko'z uchun borich)ning paydo bo'lishi dastlab paranji bilan borlik bo'lmagan. YUzni berkitish SHarkda XV asrda belgilangan. Ammo bu odat azaldan mavjud bo'lgan va u qadimiy murul odatlaridan kelib chiqqan.

XIX—XX asrning boshlarida chachvonlarni tayyorlash bilan kuchmanchi lulilar shug'ullanar edi. Qarluk o'zbek ayollari Surxondaryo viloyati o'zbeklarining jelagiga o'xshash kalta chopon "*ko'rta*"ni boshga tashlab yurishgan, Xorazm O'ZBEKlari va qorakalpoklarning "*jegede*" sini va turkmanlarning "*chirpi*" va "*eleg*"ini kiyishgan. YOqalari kashta bilan bezatilib, kalta englarning uchlari jiyak bilan tiqilib chiqilardi. Kurtani qizil va pushti rangdagi ip gazmoldan qilishardi.

O'zbek ayollari kiyimini tashqil etuvchi kiyimlardan biri bosh kiyimdir. eng an`anaviy bosh kiyim — kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak ro'mol edi, uni turli usullarda o'rash mumkin edi. Buxoroda katta uchburchak ro'mol — "*rido*",

Farronada — "*kalagay*", Xorazmda — shoyi "*ro'mol*" o'rashgan.

Ro'mollar asosan chetdan olib kelingan (Xindiston, Afroniston va Rossiya). Boy ayollar tantana paytda kumush yoki oltin zar iplar bilan to'qilgan ro'mollarni o'rashardi. Kundalikda ayollar boshiga oq doka, ba'zan kashtalangan ro'molni o'rashgan.

YOshlar do'ppi kiyishardi. Qadimda ayollar do'ppilar o'rniga qalpoqlar kiyib, ularning ustidan ro'mollarni yoki sallani o'rab yurishgan. Ayollar kalpori — "*kulta*", "*kyichig*"ni boshga yopishib turadigan baland, yumshoq gardishi bilan tiqilardi. Qalpoqlarning eng chuqqisida dumaloq teshik qoldirilardi va undan urilgan sochlarini chiqarib qo'yar edilar. Xon saroy ayollari va boy oilalarda asosan zardo'zi "*kalta pushak*" kiyishgan.

XX asr boshlarida kashta qilingan *do'ppilar* tarqala boshladi.

Qadimiy salla asosiy bosh kiyim bo'lgan. XIX asrning o'rtasidan boshlab Samarqandda, XIX asr oxirgi choragidan boshlab Toshkent va Andijon viloyatlarida ayollar sallani kiymaydigan bo'ldi. Aksariyat, ayollar sallani maxsus bosh kiyim "*lachak*"ni ustidan kiyishgan. Lachak yuzga yopishib turib, ko'krakni berkitardi. Lachak qozoq va qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimi "*kimeshek*"ka o'xshaydi. Asosan, lachak ip gazlama "*karbas*"dan tiqilardi. Janubiy Xorazmda lachakni kiyishmasdi, sallani uraganda bir o'ramini ko'kragiga tushirib, engagini va yuzini o'rashardi.

Buxoro atrofidagi va Amudaryo kuyi qarluq ayollari "*kopodon*", "*kasava*" va "*shoxboshi*" bosh kiyimlarni kiyishgan.

O'rta Osiyo ayollari taqinchoqlarining turlari xilma-xil bo'lgan. Toshkent, Buxoro va Farrona vodiysida peshonaga kiyiladigan "*tillakoshlar*", Xorazmda — "*osmado'zi*", Buxoro, Samarqand va Toshkentda — "*tilla bar gak*." bo'lgan. Boshqa ayollar taqinchoqlari ham xilma-xil edi: uzuklar, bilaguzuklar, sirralar, buloqilar va holbindilar; ko'krak bezaklari — zebigardon, nozigardon, buyin tumor, qo'ltiq tumor, sinsila, tavk, xapaband, topish va boshqalar; bo'yin bezaklari — tuf, sochpopuk va boshqalar keng tarqalgan. Bezaklar turlicha materiallardan har xil usulda yasalardi.

Ayollar oyoq, kiyimlari turli bo'lgan. SHahar va qishloqlarda, odatdagicha, maxsi kiyilardi. Maxsining qunji uzun bo'lib, unga ishton kirgizilardi. Maxsilar juda yumshoq, engil va O'rta Osiyo sharoitiga kulay bo'lgan.

Maxsini ustidan kavush kiyilardi. Ular charmdan qilinardi. Boylar, odatda, iroki usulida kashtalangan maxsi va kavushni kiyishardi. Qishda O'zbekistonda yog'ochdan yasalgan boshmoq "*xakkar kavush*" va yog'och kavush kiyishgan.

Erkaklar kostyumi. Barcha yoshdagi erkaklar kiyimi tunikasimon bo'lgan. Bu erkaklar kiyimining qadimiyligini ifodalaydi. erkaklar kiyimi ichki va ustki, bel va elka kiyimlardan iborat.

Qadimdan erkaklarning ichki ko'ylagining uzunligi tizzagacha bo'lgan, keyinroq uni bo'ksasigacha qisqartirishdi. Ko'ylakning yoqasi ikki xil bo'lgan. Farrona vodiysida yoqani to'g'ri to'rtburchak shaklda matoning diagonali bo'yicha qirqib, keng tomonlarini birlashtirib vertikal yoqa o'miziga tikishgan. Ko'ylakning ikkinchi turida esa, yoqa o'mizi gorizontal qilinardi. Farrona vodiysida va Toshkentda uni "*mullavachcha*" deb atashardi. YOqa o'mizining chekkasi jiyak bilan tikib chiqilardi. Ko'ndalang yoqali ko'ylakni Zarafshon, Qashkadaryo, Surxondaryo,

Buxoro va Xorazmda ham kiyishgan.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ichki ko'ylak "*yaktak*" keng tarqalgandi. Uni ip matolardan (chit, bo'z) tikishardi. YAxtakni yoshlar va keksalar kiyishgan. Bu engil va kulay ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, uzunligi tizzagacha yoki uzunroq edi. YOqasi zich choklar bilan qavilardi, ko'kragida bitta tugma va izmaga tugmalanardi.

Ichki bel kiyimi "*ishton*" keng bo'lgan. Uzunligi tupirigacha bo'lib, ishtonbor bilan mahkamlanardi. Ishtonni ip gazlamadan tikishgan. Sovuq paytda jun yoki qalin ip gazmoldan tiqilgan astarli yoki astarsiz "*shimni*" kiyishardi; chavandozlar namatdan qilingan, ovchilar — mo'yna yoki jundan qilingan astarsiz "*shalvar*" kiyishardi. Bu shalvarlar O'rta Osiyo erkaklarining qadimiy kiyimi bo'lgan.

Erkaklarning ustki kiyimi turli choponlar edi. Uni ko'ylak ustidan kiyishgan. CHoponlarning tunikasimon bichimi ikki turli bo'lgan.

CHoponning birinchi turi yaxlit mato parchasidan bichilardi; to'g'ri yoki sal toraygan englari gavda qismiga, qo'ltig'iga xishtak (lastovitsa), yonlariga kiyik tomoni bilan uloklar tiqilardi. CHoponning ikkinchi turida gavda qismi ikki bo'lak matodan qilinardi.

CHoponlarning ikki yonidan kesimlar qilingandi. YOqasi, etagi va engining uchiga tasma yoki jiyak, ko'kragida ikkita bog'ich tiqilardi.

CHoponlar astarsiz, astarli va paxtali qilinardi.

Farrona vodiysida, Toshkent va Xorazmda qavilgan choponlar gavdaga yopishib turardi. Ularni qatorida Farg'ona vodiysida astarsiz chopon "*avrato'n*"ni qavilgan chopon ustidan kiyishardi.

Zarchoponlarni asosan amirlar kiyishgan.

Qishda badavlat erkaklar qavilgan chopon ustidan "*chakmon*", "*kebanak*", mo'ynali "*po'stin*"ni kiyishardi. CHakmonning bichimi choponga nisbatan kengroq, va erkinroq bo'lgan, yoqasi esa orqada tik bo'lib, oldida torayyar edi. CHakmon kuy yoki tuya junidan qo'lda to'qilgan matodan qilinardi. CHorvachilik bilan shug'ullangan o'zbeklar jun matodan qilingan chopon "*kebanak*" kiyishgan. O'rta va katta yoshli erkaklar qishda kuy terisidan qilingan po'stin kiyishgan. CHoponlar va po'stinlar ikki bortli bo'lib, chapdan o'ngga o'ralardi va belbog'siz kiyilardi. Ularni chegaralariga mo'yna tiqilardi.

Belbog'lar (*belkars*, *chorsi*, *kiyikcha*) mahalliy matodan kvadrat shaklida qilinib, kashtalanardi. Badavlat odamlar va mansabdorlar duxobadan qilingan zar ukali yoki iroqi usulda kashtalangan keng kamarni takishgan. Kamarlarga sirlangan, qora kumush bilan ishlov berilgan yoki tagishton (qadama naqsh) qilingan katta tukaga qadaldardi.

Kishda kiyimni ip yoki ipakdan qilingan (uzunligi 11m gacha) "*urama belbog*" bilan borlashardi.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Rossiyadan kelgan "*kamzol*"ni shaharliklar kiyishgan. Bu oldi berk tugmalangan, tik yoqali, orqasida kesimi yuk, syurtuksimon kiyim bo'lgan. Uni ko'ylak ustidan kiyishar edi. Qishda esa uning ustidan chopon kiyishardi.

XIX asrda eng keng tarqalgan bosh kiyim do'ppi (*kalpok*, *kallapush* va boshqalar) bo'lgan. U gazmoldan tiqilib, odatda, ipak yoki kumush va zar iplar bilan kashtalanardi. Oldin, do'ppining shakli salla o'rashga qulay bo'lishi uchun, chukqili

qilinardi, gardishi esa keng bo'lgan.

XX asrda kvadrat yoki yumalok tepali do'ppilar paydo bo'ldi. Farrona vodiysida va Toshkentda "bodom" va "kalampir" naqshli (chuet do'ppisiga o'xshash), Qashkadaryoda tutash iroqi kashta qilingan "gilamdo'ppi", Surxondaryoda "piltado'zi" do'ppilarni kiyishgan.


Kashta qilingan do'ppilar katorida Toshkentda tuk duxobadan tiqilgan kashtasiz do'ppilar keng tarqalgandi.

Do'ppining yana bir turi — "shobpush" — ip gazmol-dan qilinib, mashina yoki qo'lda qavilardi. Uni qishda bosh kiyim ostidan yoki kechasi yotganda kiyishardi.

Ruhoniylar va ayrim aslzodalar, keksalar uch yoki to'rt kirrali mato parchalaridan tiqilgan baland yumalok bosh kiyim "kulox,"ni kiyishgan.

Farrona vodiysi qishloq ax,olisi namatdan qilingan kigiz qalpog'ini, qishda esa qozoqlarnikiga o'xshash mo'ynadan "tumok," kiyishgan.

Xorazmda uzun mo'ynali qo'y terisidan qilingan katta yumalok yassi bosh kiyim "chugurma"ni kiyishgan.



4-rasm. Xorazm erkaklari oyoq kiyimi: 1-maxsi; 2, 3-kavush;
4-orik, 5-ok etik; 6-teydi, namatdan paypok;
7-9-paypok kashtalarining namunalari.

Qishda do'ppining ustidan mo'ynadan qilingan, astarli yumaloq bosh kiyim — "telpak" kiyishgan. Buxoro voxasida mo'ynadan konussimon shaklli bosh kiyim kiyishgan. Uning tepasi qorakuldan, chekkasi — kundo'z mo'ynasidan va ichi — kuy mo'ynasidan qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda qalpoqlar duxobadan tiqilib, chekkasi tulki, suvsar yoki barra mo'ynasidan qilinardi.

Sallani ip, nimjun yoki dokadan qilishardi. Aholining har bir ijtimoiy tabakasi uchun sallani o'rash usuli bo'lgan, Buxoroda esa, sallani uraydigan maxsus mutaxassislar bo'lgan.

Ishlagan paytda va uyda boshni salla urniga chorsi yoki mato parchasi bilan borlashardi.

XX asrga kadar sallani o'spirinlar ham kiyishgandi. Qarilar sallasi — ok, o'rta yoshlarniki — kul rang, yoshlarniki — rang-barang bo'lgan.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi maxsi, kavush bo'lgan. "Amrikon" (Amerikadan kelgan) charmdan qilingan oyoq kiyimlari qimmatbaho edi. Maxsi va kavushlar qalin charmdan qilinardi. Yozda kavushning o'zini kiyishardi.

Ulardan tashqari, erkaklar baland kunjli va poshnali etik kiyishgan.

Qishloqda oyoq kiyimlar oddiyroq bo'lgan: etik, "*chorik*," (kunjsiz oyoq kiyim), kalta etik "*mukki*" (poshnasiz, yumshoq va kattik teridan tiqilgan) yoki "*tovuldirik*," (yorochdan qilingan uch oyoqdi), dalada ishlaganda "*xom kavush*" (mol yoki ot xom terisidan ishlangan) kiyishgan.

Nazorat savollari.

1. Zamonaviy kiyim tushunchasiga tavsif bering
2. Qishloq va shaharda yashovchi aellar kiyimining orasidagi farqi?

Tayanch iboralari

Yo'l-yo'l mato, xon atlas, romantizm, bichim, individualizm.

ADABIYOTLAR :

1. Э. Тиль История костюма М., 1971.
2. Р.Г. Мукминова Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. Т. 1976.
3. Н.П. Лобачева, М. Б.Сазонова Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстан, М. 1989.
4. A. Madraimov, N. Normatov. Shark miniatyuralari teatri T.1989.
5. Л. Орлов Азбука моды М. 1989.
6. X. Ismoilov. An'anaviy o'zbek kiyimlari
7. А. О. Шухарева История среднеазиатского костюма
8. G.K. Xasanbueva, V.A. Chursina. «Kostyum tarixi», 2004.
9. Р.М.Кирсанова Розовая ксандрейка и драдедамовый платок М.1989.
10. Ф.М.Пармон Русский народный костюм «Легпомбытиздат», 1994.
11. Ф.М.Пармон Композиция костюма М. «Легпомбытиздат», 1985.

